

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA BOLALAR IJTIMOIIY MOSLASHUVI MARKAZI

D.A. NURKELDIYEVA  
M. YU. AYUPOVA  
Z. M. AHMEDOVA

# **BARMOQLAR MASHQI VA LOGOPEDIK O'YINLAR**

*Metodik qo'llanma*

Toshkent  
«Yangi asr avlodi»  
2007

74.3 Maxsus mak+2b12p

*Mazkur qo'llanmada berilgan barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar nutq buzilishlari mavjud bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlar o'tkazishda korrektsiyalash ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

*Qo'llanmadan logopedlar, tarbiyachilar, hamda ota-onalar foydalanishlari mumkin.*


Pedagogika fanlari doktori, professor **L.Mo'minova** tahriri ostida

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent **G.A.Sodiqova**

Logoped **Sh.T.Shermuhamedova**

Mazkur qo'llanma 2007-yil 27-fevralda Pespublika ta'lim markazi maxsus ta'lim bo'limi ilmiy metodik kengashining 1-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.



HO 33168  
091

ISBN 978-9943-08-090-4

© D.A. Nurkeldiyeva, M. Yu. Ayupova, Z. M. Ahmedova. «Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar». «Yangi asr avlodi», 2007-yil.

## SO‘Z BOSHI

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ko‘pchiligida harakatlarning turli darajadagi buzilishlari, jumladan qo‘l barmoqlari harakatlarining nuqsonlari ham kuzatiladi. Bunga bog‘liq ravishda nutq buzilishlari bo‘lgan bolalarning maxsus ta‘lim tizimidagi asosiy yo‘nalishlaridan biriga bolalarning umumiy va mayda motorikasini (qo‘l barmoqlarining harakatlarini) korrektsiyalash va rivojlantirish kiradi.

Qo‘llanmada berilgan barmoqlar **mashqi** turli nutq buzilishlari bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish tizimida samarali natijalarga erishishga imkon yaratdi.

Shuningdek, metodik qo‘llanmada bolalarning eshitish diqqati, fonematik eshitish, to‘g‘ri nutqiy nafasni rivojlantirishga qaratilgan o‘yin va topshiriqlar berilgan. Logopedik o‘yinlar bolalarda **tovushlarni** to‘g‘ri, aniq, sof talaffuz qilish, so‘zlardan **tovushlarni** ajratish, berilgan tovushlarga **so‘z** topish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu kitobchada **berilgan** logopedik o‘yinlar bolalar nutqini faollashtirishga, lug‘atini **boyitishga**, nuqsonlarini bartaraf etishga, so‘zga, nutqga bo‘lgan **qiziqishlarini** orttirishga yordam beradi.

## NUTQNI O‘STIRISHDA BARMOQLAR MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Bolaning qo‘l panjasi va barmoqlarini harakatlantirish o‘ziga xos rivojlantiruvchi ta’sirga ega.

Mutaxasislarning ta’kidlashicha, qo‘l va barmoqlar ishtirokidagi o‘yinlar tana va ongning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Qo‘lning oddiy harakatlari nafaqat qo‘lning balki, lab, yuz mushaklari zo‘riqishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlar talafuzini yaxshilashga ham yordam beradi.

Barmoqlarning mayda harakatlari bo‘g‘inlar artikulyatsiyasiga o‘ziga xos ta’sir etadi. Barmoqlar rivojlanishi evaziga miyada nutqning ravon bo‘lishi kuzatiladi.

Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqli hamdir.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq, mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondoshishga imkon beradi.

Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishi esa ko‘nikmalarning shakllanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi.

Quyida tavsiya etilayotgan barmoqlar mashqlari uch martadan besh martagacha avval bir qo‘lda, so‘ngra esa ikkinchi qo‘lda va nixoyat ikkala qo‘lda bajariladi. Logopedlar, ota-onalar bolaning mashqlarni to‘g‘ri bajarishi, bir harakatdan ikkinchisiga aniq o‘tishini kuzatib turishlari lozim.

### Quyuncha

Dikir-dikir sakraydi  
Uzun quloq quyuncha.  
Mahkam ushlab qo‘lida  
Sabzisini quyuncha.



*Barmoqlar tugiladi. Ko‘rsatkich hamda o‘rta barmoq ko‘tarilib u yon-bu yon qimirlatiladi.*

## Shilliq qurt

Mittivoy shilliq qurtning,  
O'sibdi shoxchalari.  
Yurishni o'rgataman,  
O'sganda oyoqchalari.



*Barmoqlar musht qilib tugiladi. Ko'rsatkich barmoq va jimjiloq uzatilgan holda. "Shilliq qurt" sekin oldinga harakatlanib, mo'ylovlarini qimirlatib yuradi.*

## Bayroqcha

Quyoshda yal-yal yonar  
Alvon rangli bayroqcha.  
Bamisoli yonib turar  
Qo'limizda gulxancha.



*To'rt barmoq: ko'rsatkich, o'rta, nomsiz barmoqlar va jimjiloq – zich, bosh barmoq pastga osilgan. Qo'lning orqasi o'zingizga qaragan.*

## Kapalak

Hoy kapalak, kapalak,  
Bahordan berding darak.  
Qo'nasan guldan gulga,  
Tutqich bermaysan bizga.

*Ikkala qo'lning bilaklari ustki tomoni bilan bir-biriga tekkiziladi. Barmoqlar bukilmagan. Kapalak qo'nib turibdi. Xuddi shu holat, ammo bilaklarni yengil harakatlantirish orqali kapalakning uchishi ifodalanadi.*

## Uycha


Biz quramiz  
Baland uylar.  
Unda bordir mo'ri,  
Eshik va romlar.



*Kaftlar burchak ostida, barmoqlar uchi bir-biriga tegib turadi, o'ng qo'lning o'rta barmog'i yuqoriga tik ko'tarilgan (mo'ri).*

## Pufak


Kattalashar puflasangiz  
Xuddi katta ko'ptokcha.  
Biz ularni o'ynaymiz,  
Quvlab, qochib, quvnamiz.  
Yorildi-yu "paq" etdi,  
Havosi chiqib ketdi.



*Ikkala qo'lning barcha barmoqlari orasi keng ochilib, bir-biriga tekkizib turiladi. Shu holda ularga qarab havo puflanadi va barmoqlar biroz buklanib shar shakliga keltiriladi. "Havo chiqib ketgach" barmoqlar yana avvalgi holatga qaytadi.*

## Barmoqlar salomlashadilar

Salom deymiz hammaga  
Tog'a, xola, ammaga.  
Hatto qo'shni hovlida  
Yurgan tovuq xolaga.



*O'ng qo'l bosh barmog'ining uchi navbatma-navbat avval ko'rsatkich, so'ngra o'rta, nomsiz barmoq va jimjiloq uchlariga tekkiziladi.*

## Assalom

Assalom –oltin quyosh,  
Assalom moviy –osmon,  
Salom deyman terak senga,  
Salom sizga bulutlar,  
Salom deyman hammangizga,  
Biz yashaymiz bir zaminda.



*O'ng qo'l barmoqlarining uchlari navbat bilan chap qo'l barmoqlarining uchlariiga bir necha martadan tegish orqali salomlashadilar.*

## Qo'ng'iz

Men quvnoq may qo'ng'izi,  
Onamning erka qizi.  
Keng dalada uchaman,  
Men olamni quchaman.



*Barmoqlarni musht tugib, ko'rsatkich barmoq va jimjiloq ikki tomonga ayri qilib ochiladi va qimirlatiladi.*

## Mushukning tirnoqlari

Mushukning qizchasi  
Tirnoqlari o'sibdi.  
Yashirinmang tirnoqchalar  
Ko'rishsin bolachalar.



*O'ng qo'l barmoqlarini ikkinchi bo'g'indan qayirib, barmoqlarning uchidagi "yostiqlarini" kaftning yuqori qismiga bosib turiladi. Bosh barmoq ko'rsatkich barmoqqa jipslashtiriladi. Shu harakat chap qo'lda ham bajariladi. Ushbu mashq birdaniga ikkala qo'lda ham bajarilishi mumkin.*

## Jimjiloq


Yig'laydi jimjiloqcha  
Tushunmaydi akasi.  
O'rta barmoq qaramas,  
Hatto ne deb so'ramas.  
Ko'rsatkich undan so'rar,  
—Qorning ochgandir balki?  
Kattasi keltirib osh,  
Deydi: Yeb oshing, so'ng bo'l yuvosh.



*Musht tugib, barmoqlar jimjiloqdan boshlab navbat bilan birma-bir ochiladi. Oxirgi jumla aytilganda, bosh barmoq uchlari jimjiloqqa tegizib olinadi.*

## Kaft va musht

Sen ham bajar  
Hoy o'rtoq,  
Goh mushtum  
Goh shapaloq.



*Qo'llar stol ustida: 1) kaftni stol ustiga bosiladi; 2) bir vaqtning o'zida ikkala qo'l da ham musht tugiladi "musht-musht holati"; 3) bir qo'lning mushti ochilib kaft stolga bosib turiladi "kaft-musht" holati. Mashqning bajarilishini murakkablashtirish uchun harakatlar tezligi oshiriladi.*

## Quyosh

Erta tongda  
Quyosh turib  
Bolalarni erkalaydi,  
Boshlarini silaydi.



*Bilaklar ichki tarafi bilan bir-biriga tekkiziladi. Barmoqlar quyosh nurlari kabi keng yoyilgan holatda bo'ladi.*

## Daraxtlar

Salom ey yashil o'rmon,  
Sen ertaklarga makon!




*Chap va o'ng qo'llar kaftini barmoqlarni keng ochgan holda o'ziga qaratib ko'tariladi.*

## Gul

Atirgul edi g'uncha,  
Ochilibdi tong otguncha.

*Ikkala qo'l barmoq uchlari jipslantiriladi. Kafilar biroz bukilgan holatda. Bunda g'uncha shakli ifodalanadi.*




*Kaftlarning pastki qismi bir-biriga jipslashtiriladi, barmoqlar doira shaklida keng ochilgan va biroz bukilgan. Bunda ochilib turgan atirgul hosil bo'ladi.*



## Asalari


Asalari qo'nib gulga,  
Sharbat yig'ar tuguniga.



*O'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'ini oldinga chiqarilgan va uni doira shaklida aylantirib harakatlantiriladi, so'ngra xuddi shu harakat chap qo'lda bajariladi.*

## Vertolyot

Qani uch, ey vertolyot,  
Parraging tez aylantir.  
Ortda qolsin samolyot,  
Parraging tez aylantir.



*Ikkala qo'lning barmoqlari (ko'rsatkich va bosh barmoqdan tashqari) – to'qilgan savat shaklida chirmashtiriladi. Ko'rsatkich barmoqlarni oldinga cho'zib uchlari bir-biriga tekkiziladi (bu vertolyotning dumi). Bosh barmoqlar bilan vertolyotning parragiga o'xshash tez-tez aylanma harakatlar bajariladi.*

## Odamcha

Tap-tap yurar oyoqchalar,  
Bamisoli tayoqchalar.



*O'ng (so'ngra chap) qo'lning ko'rsatkich va o'rta barmoqlari "oyoqlar"dek stol ustida "yuradi".*

## Yomg'ir

Yomg'ir yog'di mo'l-mo'l,  
Bolalar usti bo'ldi xo'l.

*O'ng (chap) qo'llarning barmoqlari uchi stolga qo'yilib, ular yordamida galma-galdan stol sathi taqqilatiladi (pianino chalgandek).*



## Shoxdor echki

Shohdor echki kelmoqda,  
Bolalarni ko'rmoqchi.  
Kim ichmasa sutini,  
Kim yemasa oshini,  
Suzib oladi uni.



*Qo'lning ko'rsatkich barmog'i va jimjilog'idan boshqalari bukilgan. Bu – "echki". "Suzib oladi uni" qatori aytilganda, ular bolaga qarab qimirlatiladi.*

## Qushlar


Qushlar shohda sayraydi,  
Uchib, qo'nib yayraydi.  
Shamol esadi g'ir-g'ir  
Yaproqlar shildir-shildir.



*Ikkala qo'l barmoqlari qush qanoti singari past-balandga harakatlantiriladi, so'ngra kaftlar ochilib bir-biriga qaratilgan holatda egilib, shamol esganga o'xshash harakat bajariladi.*

## Quvnoq cholg'uvchilar

Quvnoq musiqachilar  
Yig'ilishdi o'rmonda.  
Quyov chalar nog'ora,  
Ayi chaladi surnay,  
Bo'ri chalibdi karnay,  
Momiq mushuk garmonda,  
Tulki qoldi armonda.



*Turli musiqa asboblarida kuy chalishga taqlid qilingan harakatlar bajariladi.*



## Olma

Bog'da olma pishibdi,  
Qip-qizarib turibdi.  
Silkitibdi shamollar,  
Yerga to'p-to'p tushibdi.

*O'ng va chap qo'l barmoqlari biroz bukilib, bir-biriga qaratilib olmani ikki qo'llab ushlagandek bo'ladi. Barmoqlar qimirlatiladi. Barmoqlar yordamida shamol esayotgandek harakat qilinadi. Qo'llar pastga qaratilib, barmoqlar buklab ochiladi.*

## O'rdakchalar

Bir-ikki – sayrda o'rdakchalar,  
Uch, to'rt –suvga tushdilar ular.  
Beshinchisi yetib oldi,  
Oltinchisi ortda qoldi.  
Yettinchisi yetib oldi,  
Sakkizinchisi ham bordi.  
To'qqizinchisi shoshib qoldi.  
O'ninchisi qo'rqib ketib,  
G'aqillab yig'lab qoldi.  
Yig'lamasdan sen tezroq  
Yetib ol bizga o'rtoq.



*Navbat bilan o'ng qo'l barmoqlari (so'ngra chap qo'l) bukiladi.*

## Barmoqlar turishdi

Bu barmoq uxlamoqchi  
Bu barmoq to'shakda.  
Bu barmoq - esnamoqda,  
Bunisi uxlab qoldi.  
Barchasi turdi omon,  
Ketdik bog'chamiz tomon.



*Barmoqlar jimjiloqdan boshlab kaftga bukiladi. So'ngra bosh barmoq bilan barchasiga tegilib "uyg'otiladi". "Barchasi turdi omon" qatori aytilganda barmoqlar keng ochilib musht yoziladi.*


## Arg'imchoq

Terak shohi qimirlar  
Arg'imchoqdan shod bizlar  
Goh tepaga, goh pastga  
Uchirar bizni ular.




*Mashq avval o'ng qo'l, so'ngra chap qo'l va nihoyat ikkala qo'l bilan bajariladi.*

*Barmoqlar jipslashgan, to'g'ri holatda. Qo'l kafti bilan arg'imchoqning harakatlariga taqlid qilib, avval yuqoriga ko'tariladi, so'ngra biroz bukilgan barmoqlar bilan asta pastga tushiriladi.*



## To'polonchi

Shovla pishirdi xolam  
Kenjaga qildi alam.  
Voqea bunday bo'libdi:  
Kattasiga suzibdi,  
O'rtanchaga ham berdi.  
Keyingisiga suzdi.  
Kichigiga ham berdi.  
Kenjatoyga bermapti,  
Chunki u g'alva qildi,  
Likopchani sindirdi.



*She'rning dastlabki qatorini aytganda kaftda barmoq bilan doira chiziladi. Keyingi qatorlarida she'rni aytib turib barmoqlar bukiladi. Sakkizinchi qatorini aytayotganda boshqa qo'l bilan jimjidoq ushlab biroz silkitiladi.*

## Quyonglar

Ikki barmoq bir bo'ldi,  
Quyonglarga aylandi.  
Quyonglar salomlashib  
Quloqlari silkindi.



*Ikkala qo'lning kaftlari bir-biriga qaragan holatda.  
Barmoqlar tugiladi. Ko'rsatkich hamda o'rta barmoq ko'tarilib u yon-bu yon  
gimirlatiladi.*

## G'oz

Besh barmoq bo'lsa birga  
O'xshar xuddi g'ozlarga,  
G'ozlar g'ozni ko'rganda,  
Deyishadi g'a-g'a, siz qayga?



*Tirsakni tik tutib, kaft barmoqlari to'g'ri burchak shaklida bukiladi.  
Ko'rsatkich barmoq bosh barmoqqa tegib turadi. Barmoqlar jips yopishgan.*

## Uzuk

Yoqut ko'zli uzuchkam  
Oftobda yaltiraydi.  
Uzugimga qizchalar  
Havas bilan qaraydi.  
Bosh va o'rta barmoqlar.



*Bosh va o'rta barmoqlar xalqa qilib birlashtiriladi, qolgan  
barmoqlar esa erkin holatda qoladi.*

## LOGOPEDIK O'YINLAR

O'yinlar bolalarning jismoniy yetuk bo'lishi, aqliy va ahloqiy jihatdan tarbiyalanishlari, shuningdek nutq nuqsonini bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o'yin bolalarni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, ya'ni o'yin jarayonida bolalarda o'zaro munosabat malakalari paydo bo'ladi, murakkab axloqiy, his-tuyg'ular shakllana boradi.

O'yinni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega.

To'g'ri tashkil qilingan o'yin nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yangi so'zlarni qo'llash uchun ehtiyoj tug'diradi, ularning lug'at boyligi oshadi, nutqidagi kamchiliklar korrektsiyalanib boradi. O'yin va o'yin mashqlari tortinchoq bolalarni faollashtirishga yordam beradi. O'yin bolalarning nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'yin va mashqlarda nutqiy material ongli ravishda o'zlashtirilib, mexanik yodlashga yo'l qo'yilmaydi.

Logopedik o'yinlarni tashkil etishda, logopedning ishi uni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Umumiy va nutq matorikasining buzilishlari bo'lgan bolalarning (dizartriklarda) o'yinda tez charchab qolishi kuzatiladi. Harakat bezovtaligi, o'ziga ishonchsizlik, nutqiy charchashlar, jamoada o'yinga kirishishda qiyinchilik tug'diradi.

Alalik bolalarda, o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yin mazmuni maqsadga yo'naltirilgan harakatni bildirmaydi. O'yin ularda bir xil mazmuni va taqlidni aks ettiradi.

Duduqlanuvchi bolalarda o'yinda uyatchanlik, noto'g'ri nutqidan qo'rqib, o'yinga tez kirisha olmasliklarini kuzatamiz. Ular o'yinda ko'pincha tomoshabin bo'ladilar yoki ikkilamchi rollarni tanlaydilar.

Bolalar nutqidagi kamchiliklarni korrektsiyalab borishda o'yinning 3 ta turidan foydalaniladi.

Logopedik o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladi.

Logopedik o'yinlarni o'tkazishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarni to'g'ri nafas olish va nafas chiqarishga o'rgatish;
2. Ovozni rivojlantirish. Past va baland ovozda gapirishga o'rgatish;
3. Eshituv diqqati va nutqni eshitishni rivojlantirish;
4. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
5. Bolalarda logopedik o'yinlar orqali duduqlanishni bartaraf etish;
6. Bolalarda qo'lning mayda harakatlari, hamda umumiy harakatlarni rivojlantirish.

Logopedik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishda logoped turli nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning qobiliyatlarini e'tiborga olishi lozim.

Logoped o'yinlarni o'tkazish orqali bolada nutqidan uyalmaslik, muloqotga kirishishi, to'g'ri va ravon gapirish kabi sifatlarni rivojlantirib boradi.

## NAFAS, OVOZ, ESHITUV DIQQATI VA NUTQNI ESHITISHNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TAYYORLOV O'YINLARI

### «Kapalaklar uchayapti» o'yini

**Mashg'ulotning maqsadi:** To'g'ri, uzluksiz havo oqimini hosil qilishga erishish.

**O'yinning mazmuni:** Bolalar stulchalarda o'tirishadi.

Logoped bolalarga: «Bolalar qaranglar-a, qanday chiroyli kapalaklar; ko'k, sariq, qizil!» Ular xuddi jonli kapalaklarga o'xshaydi. Ko'raylikchi, ular ucha oladilarmi? (ularni puflaydi). Qaranglar, uchib ketishdi. Qani sizlar ham puflab ko'ringlar-chi. Kimniki uzoqqa uchar ekan?

Logoped har bir kapalakning qarshisiga bittadan bolani turg'azib qo'yadi, bolalar kapalakka qarab puflaydilar.

**Metodik ko'rsatma:** O'yin bir necha marotaba takrorlanadi. Bunda bolalarning to'g'ri turishiga, nafas olganlarida yelkalarining ko'tarilmasligiga ahamiyat berib borish kerak. Bolalar bir nafas chiqarishda, havo olmasdan turib, biron narsani puflashlari kerak. Lablar biroz cho'chchaygan bo'ladi.. Har bir bola biror narsani 10 soniyadan (orasidan tanaffus qilish bilan) ortiq puflamasligi kerak. Davomli tanaffussiz 10 soniyadan ortiq puflash bosh aylanishni keltirib chiqarishi mumkin.

### «Kimning qushchasi uzoqqa uchadi?» o'yini

**O'yinning mazmuni:** Ikkita stulchanning qirralariga qushchalar qo'yiladi, stulchalar bir-biridan 30 sm uzoqlikda turishi kerak. To'rtta bola chaqirilib, har bir stulchanning qirrasida turgan qushchalarning to'g'risiga turg'azib qo'yiladi. «Qushchalar uchishdi» deyilgach, bolalar shakllarni puflashadi, boshqalari esa kimning qushchasi uzoqqa uchganligini ko'rsatadilar.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar yupqa qog'ozdan tayyorlangan qushchalarni puflaganlarida lunjlari shishmasligi kerak. Qirqib ipga osilgan shakllarni bir nafas chiqarishda harakatlantirish kerak. Logoped bolalarga qushchani puflaganda ketma-ket (bo'lib-bo'lib) puflash mumkin emasligini aytadi va o'zi qushchani puflab ko'rsatadi.

### Ovozni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar Ovoz kuchini rivojlantirish

Ovozni past va baland chiqara olish malakasini hosil qilish.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Bolalarni ingichka va past ovozda gapirishga o'rgatish.

### «Kim qanday qichqiradi?» o'yini

**O'yinning mazmuni:** Logoped o'zining hikoyasini, uning mazmuniga taalluqli bo'lgan shakllarni (o'yinchoq yoki o'yinchoq rasmlarni flanelografda ko'rsatib berish bilan boshlaydi: «Ertalab



biz oilamiz bilan dalaga sayr qilgani chiqdik. Qulog‘imizga nimaningdir ingichka ovozda «pi-pi» deb (ingichka ovozda talaffuz etadi) ovoz chiqarayotgani eshitildi. Qarasak, bu chumchuqning bolasi – chumchuqcha ekan. U daraxtga qo‘nib, onasini qidirib chaqirayotgan ekan. U onam menga qachon qurt, chualchang olib keladilar deb, ingichka ovozda chiyillar edi. Qushcha qanday chiyillar ekan? (Bolalar ingichka ovozda chumchukchaning «pi-pi» deb ovoz chiqarishiga taqlid qiladilar). Birdaniga ona chumchuq uchib keladi, uning og‘zida chualchang bor edi, u chualchangni bolasiga (qushchaga) berdi va past ovozda «pi-pi» deb ovoz chiqarib qo‘ydi».

Logoped past ovozda talaffuz etadi. Ona chumchuq qanday ovoz chiqaradi? (Bolalar «pi-pi» deb juda past ovozda talaffuz etadilar). Qush uchib ketganidan keyin biz sayrimizni davom ettirdik. Biz bir poliz oldidan chiqib qoldik. U yerda qayerdandir ingichka «miyov-miyov» degan ovoz kelar edi (miyov-miyov). Bu ovoz mushukchaniki ekan. U bizni ko‘rib, oldimizga yugurib keldi. U qanday miyovladi? (Bolalar mushukchaning ovozini ingichka tovushda talaffuz etadilar). U onasi — ona mushukni qidirib yurgan ekan. Ona mushuk bolasini — mushukchaning ovozini eshitib, yugurib keldi va past ovozda «miyov-miyov» deb bolasini erkalab qo‘ydi. Ona mushuk qanday miyovladi? (Bolalar past ovozda ona mushuk ovoziga taqlid qiladilar, «miyov-miyov»). Endi, bolalar, men hozir sizlarga guruhimizga kimlar mehmon bo‘lib kelganini ko‘rsataman. Logoped boshqa xonadan katta mushuk (ona mushuk) o‘yinchog‘ini olib keladi va stol ustida yurg‘izadi. Bolalardan so‘raydi: « Ona mushuk qanday miyovlaydi?» (Bolalar ovozlarini pasaytirib, «miyov-miyov» deb aytadilar). So‘ngra mushukchani, ona chumchuqni (qush), chumchuqchani ko‘rsatadi, bolalar ularning ovozlariga taqlid qiladilar.

**Metodik ko‘rsatma:** Bolalar baqirmasdan, tinch ohangda, kerak bo‘lganda ovozini balandlatib, pastlatib gaplashishlari, logoped esa nazorat qilib turishi kerak.

## Ovoz kuchini o'zgartirish

**Mashg'ulotning maqsadi:** Bolalarni vaziyatga qarab baland va past ovozdanda foydalanishga o'rgatish.

### «Shamol esyapti» o'yini

**O'yinning mazmuni:** Bolalar stulchalarda yarim doira shaklida o'tiradilar, Logoped shunday deydi: Biz yozda o'rmonga sayrga bordik. Dala bo'ylab ketyapmiz, quyosh oltin nurlarini har tomonga sochyapti, yengil shamol esib o'tlarni, gullarni tebratyapti. Shamol sekin esyapti, mana bunday: u-u-u, (logoped «u» tovushini sekin va cho'zib talaffuz etadi). Mana bog'chaga ham yetib keldik, bizlar ko'plab gullar, mevalar terdik va uyimizga qaytmoqchi bo'ldik. Birdaniga kuchli shamol esa boshladi. Shamol qattiq guvillay boshladi: u-u-u... (tarbiyachi bu tovushni baland va uzoq talaffuz etadi). Bolalar tarbiyachiga taqlid qilib, yengil va kuchli esayotgan shamolning ovozini takrorlaydilar. So'ngra tarbiyachi rasmlarni ko'rsatadi, bolalar esa rasmga qarab, unga taalluqli bo'lgan ovoz kuchida shamolning ovoziga taqlid qiladilar.

**Metodik ko'rsatma:** Logoped bolalarning ovoz kuchini o'zgartirishlariga e'tibor berib borish kerak.

### Osoyishta (past) ovozdanda foydalanish malakasini tarbiyalash «Mushuk va sichqon» o'yini

**O'yinning mazmuni:** Bolalar doira bo'lib yuradilar, o'rtada mushuk rolidagi bola o'tiradi. Bolalar yura turib quyidagi she'rni past ovozdanda aytadilar:

«Sekin sichqonlar, sekin sichqonlar,  
Tom boshida mushuk bor.  
Sichqon, sichqon, ehtiyot bo'!  
Mushuk seni tutmasin!»

Mushukni tasvirlovchi bola she'r matni tugashi bilan baland ovozda miyovlaydi va bolalar ketidan quvadi. Ushlangan bola mushuk bo'ladi.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar ovozi juda baland ham, past ham bo'lmasligi zarur.

### **Past va baland ovozdan foydalanish malakasini tarbiyalash**

**Mashg'ulotning maqsadi:** Bolalarni past va baland ovozda gapirishga o'rgatish.

#### **«Aks-sado» o'yini**

**O'yinning mazmuni:** Bolalar 2 guruhga ajratiladi. Birinchi guruh bolalari o'rmonda adashib qolgan bolalarni, ikkinchi guruh bolalari esa aks-sadoni tasvirleydilar. Har bir guruh xonaning turli burchagiga joylashadi. O'rmonda adashib qolgan bolalarni tasvirlovchi guruh bolalari boshqa guruhdagi bolalarning (aks-sado guruhidagi bolalarni) ismini baland ovozda aytib chaqirishadi: «Au, Olima! Au, Po'lat!» Aks sadoni tasvirlovchi bolalar xuddi shu so'zlarni past ovozda takrorlashadi. So'ngra o'yin qatnashchilari rol almashadilar.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar o'rtoqlarining ismini aytib chaqirganlaridan keyin pauza qilishlari, «Aks-sado» ga aytgan so'zlarini takrorlash uchun imkoniyat berishlari kerak.

### **Diqqatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar**

**Maqsad:** Bolalarda eshituv diqqatlarini rivojlantirish. Bolalarni tovushga taqlid qilishni eshitib, qaysi o'yinchoq shunday ovoz chiqarishini aniqlashga o'rgatish.

#### **1. «Top nima qichqiryapti?» o'yini**

**O'yinning qisqacha mazmuni:** Logoped oldindan tayyorlab qo'ygan o'yinchoq'ini bittadan olib, uni bolalarga ko'rsatadi,

ovoziga taqlid qiladi va bolalardan bu qaysi hayvonning ovozi ekanligini so'raydi. O'yinchoqni bolalarga yashirgan joydan olib ko'rsatishdan oldin ovozini taqlid qilib ko'rsatadi va bolalardan «Topinglarchi, hozir bizga qaysi hayvon mehmon bo'lib keladi» deb so'raydi. So'ngra tarbiyachi bir bolaga boshqa xonaga o'tib, eshigini bir oz ochib qo'ygan holda birma-bir hayvonning ovozigga taqlid qilishini aytadi, boshqa bolalar esa u qaysi hayvonning ovozi ekanligini topadilar.

O'yinni 5-6 marta takrorlash mumkin. Bolalarning diqqat bilan eshitishlarini kuzatib turish kerak.

## 2. «Qayerda chalindi?»

**Mashg'ulotning maqsadi:** Bolalarni tovush yo'nalishini aniqlay olishga o'rgatish, fazoviy mo'ljalni rivojlantirish. Bolalarda ma'lum ob'ektga eshituv diqqatini to'play olish malakasini tarbiyalash.

Bolalar aylana shaklida o'tirishadi. Logoped o'yin boshlovchini tanlaydi. Boshlovchi o'rtada (doira markazida) turadi. Logopedning signali bilan boshlovchi ko'zini yumadi. Shu vaqt logoped bolalardan birontasiga qo'ng'iroqni beradi va chalishni taklif etadi. Boshlovchi ko'zini ochmay, qo'ng'iroq ovozi kelayotgan tomonni qo'li bilan ko'rsatadi. Agar bola tovush kelayotgan tomonni to'g'ri ko'rsatsa, tarbiyachi «bo'ldi» deb aytadi va o'yin boshlovchi ko'zini ochadi, qo'ng'iroqni chalgan bola esa qo'ng'iroqni yuqoriga ko'tarib, uni ko'rsatadi. Agar o'yin boshlovchi adashsa, yana bir marta qo'ng'iroq ovozi qayerdan kelayotganligini topish taklif etiladi. So'ngra boshqa o'yin boshlovchi tayinlanadi. O'yin 4-5 minut takrorlanadi. O'yin boshlovchi o'yin vaqtida ko'zini ochmasligi kerak, buni kuzatib borish lozim. O'yin boshlovchi tovush kelayotgan tomonni qo'li bilan ko'rsatib, shu tomonga burilishi kerak.

Qo'ng'iroqni juda baland va past chalish kerak emas.

## «Quyosh va yomg'ir» o'yini

**O'yinning mazmuni:** Tarbiyachi bolalarga «Hozir biz sizlar bilan sayrga boramiz. Yomg'ir yo'q. Ob-havo yaxshi, quyosh charaqlab

turibdi. Gullar terish mumkin. Sizlar sayr qilinglar. Men esa doira chalaman. Doira sadosida sayr qilish qiziqarli bo'ladi. Agar yomg'ir yog'a boshlasa, men doirani cherta boshlayman, sizlar esa doirani taqillashini eshitib, uylaringizga yugurishingiz kerak. Diqqat bilan tinglang, men qachon doirani chalaman, qachon taqillata boshlayman».

**Metodik ko'rsatma:** Tarbiyachi bu o'yinini, doiraning ovozini o'zgartirib, uch-to'rt marrra takrorlaydi.

**Mashg'ulotning maqsadi:** Bolalarni doiraning turli ohangiga qarab harakatlarni bajarishga o'rgatish.

### **Nutq eshitishni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar**

Eshitish o'tkirligini rivojlantirish, bolalarni ovoz kuchidan qat'iy nazar so'zli ko'rsatmani to'g'ri idrok etishga o'rgatadi.

#### **«Kim diqqatli?» o'yini**

Bolalar logoped stoli qarshisida 3 qator bo'lib o'tirishadi. Stol ustiga turli o'yinchoqlar qo'yiladi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Bolalar, hozir men birinchi qatorda o'tirgan bolalarga topshiriq beraman. Men qanday topshiriq berishimni juda past ovozda (pichirlab) aytaman, shuning uchun hammangiz juda diqqat bilan quloq solib o'tirishingiz kerak. Men har biringizni ismingiz bilan chaqirib, topshiriq beraman, sizlar esa u topshiriqni to'g'ri bajaryaptimi yoki yo'qmi kuzatib boringlar.

Diqqat qilinglar, o'yinimizni boshlaymiz. Topshiriq: «Qo'g'irchoqni ol va uni krovatga yotqiz». Tarbiyachi ushbu gapni juda past ovozda (pichirlab) aytadi. Bolalar esa harakatni bajaradi. Birinchi qatordagi bolalar topshiriqni bajaradilar. So'ngra ular 3-qatorda o'tirgan bolalar o'rniga, 3-qatordagilar 2-qatorga, 2-qatordagilar 1-qatorga o'tiradilar».

Logoped bolalarning tinch o'tirishini kuzatib borishi kerak. Bolalar eshitgan topshiriqlarni bir-birlariga aytishmasin. So'z ko'rsatmasi qisqqa va sodda bo'lishi kerak.

#### **«Lolaxonni uyg'otma» o'yini**

**O'yinning mazmuni:** Tarbiyachi oldiga krovatda uxlab yotgan qo'g'irchoqni oladi va shunday deydi: «Lolaxon juda ko'p sayr qildi,

charchadi. Ovqatlanib oldi-da, uxlab qoldi. Biz esa u o'ynagan o'yinchoqlarni yigishtirib qo'yishimiz kerak, ammo qo'g'irchoqni uyg'otib yubormaslik uchun o'yinchoqlarni sekin yig'ishtirib olishimiz kerak. Qani Olima va Salima, mening oldimga kelinglar-chi. Olima sen Salimaga qaysi o'yinchoqlarni yig'ishtirib qutiga solish kerakligini juda past ovozda aytgin. Shu tariqa hamma bolalarni ikkitadan chaqirib, stol ustiga terib qo'yilgan o'yinchoqlarni yig'ishtirib olishni taklif etadi».

**Metodik ko'rsatma:** Bolalarda nutqni tushunib, topshiriqni to'g'ri bajarishga o'rgatish.

### **Nutq apparatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar**

Bu mashg'ulotlarning asosiy vazifasi bolalarda nutq a'zolari, ya'ni til, lablar, pastki jag', tilchaning harakatlanishini rivojlantirishga qaratilgan.

#### **«Shirin murabbo» o'yini**

**Maqsad:** Tilning harakatlarini faollashtirish.

**O'yinning borishi:** Bolalarga murabbo yalayotgan qizning rasmi ko'rsatiladi. Qizning yuqori va pastki labiga murabbo yopishib qoldi. Qiz murabboni tili bilan yaladi. (Til harakati bilan murabboni yalash ko'rsatiladi). So'ngra bolalar ham ushbu mashqni qaytaradilar. Logoped har bir bola mashqni qanday bajarayotganini kuzatib boradi.

#### **«Tishlarimizni tozalaymiz»**

**Maqsad:** Tilning harakatini faollashtirish.

**O'yinning borishi:** Bolalar logopedga qaragan holatda bir qator bo'lib o'tiradilar. Bolalarga rasm ko'rsatiladi. «Qaranglar, bola qanday qilib tishlarini tozalayapti. Biz ham hozir sizlar bilan tishlarimizni tozalaymiz. Faqat cho'tka bilan emas, balki tilimiz bilan». Avval logoped tili bilan tishlarini tozalashni bolalarga o'zi ko'rsatib beradi. So'ngra har bir bolani oldiga chaqirib, mashqni bajarishini kuzatib boradi. Mashq bir necha marta bajartiriladi.

## «Ot» o'yini

**Maqsad:** Til uchining harakatlarini faollashtirish.

**O'yinning borishi:** Bolalar qator bo'lib turadilar, ya'ni ular otchalardir. Logopedning «Ketdik» degan so'zidan so'ng bolalar yuradilar va shu bilan birga otning yurishiga taqlid qiladilar (tra-tru, tra-tru,). «To'xtang» deyilgandan so'ng esa to'xtab, otni to'xtatish ovozigga taqlid qiladilar (trr - trr...).

So'ngra logoped har bir bolaga alohida talaffuz ettiradi. Logoped bolaning tili yuqori tishlar orqasida bo'lishini va tilning uchini harakatlanishini kuzatib borishi kerak. Til uchini to'g'ri ko'tarishga e'tibor berish kerak. Agar bola ushbu mashqni bajara olmasa, konfet so'rishga taqlid etishni o'rgatish kerak.

## «Chumchuqlarni boqish» o'yini

**Maqsad:** Pastki jag' harakatini faollashtirish.

**O'yinning borishi:** Bolalar tarbiyachiga qarab o'tirishadi, tarbiyachi esa bolalarini ovqatlantirayotganday ona chumchuq tasvirlangan rasmni bolalarga ko'rsatib, shunday deydi: «Hozir birgalashib bir o'yin o'ynaymiz. Sizlar chumchuq bo'lasizlar, men esa ona chumchuq bo'laman. Ona chumchuq don olib keldi. Hamma chumchuqlar og'izlarini ochishadi. Donni yeyishdi va og'izlarini yopishdi». Bolalar bu harakatni bir necha marta takrorlashadi.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar tinch o'tirishlari, og'izni ochish va yopish vaqtida boshlarini u yoq-bu yoqqa tashlamasdan to'g'ri tutib turishlari kerak. Og'izni ochiq holatda saqlab turish vaqti asta oshirib boriladi. Ammo u 4-6 soniyadan oshmasligi kerak.

## «Lablar dumaloq, xuddi teshik kulchaga o'xshash» o'yini

**Maqsad:** Lab harakatini faollashtirish.

**O'yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga teshik kulcha tasvirlangan rasmini ko'rsatadi va shunday deydi: «Bolalar kim

labini huddi teshik kulchaga o'xshatib, dumaloq shaklga keltira oladi. Mana bunday qilib (ko'rsatadi)». Lablar dumaloq bo'lishi uchun tarbiyachi «O» tovushini talaffuz etib ko'rsatadi. Tarbiyachi navbat bilan bir necha bolani chaqirib, mashqni bajarishni taklif qiladi. So'ngra hamma bolalarga lablarini dumaloq shaklga keltirishni taklif etadi.

**Metodik ko'rsatma:** Tarbiyachi bolalar mashqni zo'riqmasdan bajarishlarini kuzatadi. Og'iz ochiqroq bo'ladi.

### «Kim yaxshi kuladi?» o'yini

**Maqsad:** Lablarning harakatini faollashtirish.

**Jihoz:** qo'g'irchoq, bo'g'irsoq.

**O'yinning borishi:** Bolalar yarim doira holatda o'tiradilar. Logoped bolalarga shunday deydi: «Biz xursand bo'lganimizda kulamiz», mana bunday (o'zi kulib ko'rsatadi). Biz juda xursand bo'lib kulganimizda tishlarimiz ko'rinadi. Hozir bizga bo'g'irsoq bilan qo'g'irchoq mehmonga keladi. Hammamiz xursand va kulib ularni kutib olamiz». Bolalar tishlarini ko'rsatib kuladilar. «Endi mehmonlarimiz ketdi. Biz hafa bo'ldik. Tishlarimizni bekitamiz. Mehmonlarimiz yana keldi. Kulamiz». Shu tariqa mashqlar bir necha marta takrorlanadi. Lablarning harakatlarini aniq bajarilishi kuzatib boriladi.

### «Kim nay chala oladi?» o'yini

**Maqsad:** Lablarning harakatlarini faollashtirish.

**O'yinning borishi.** Bolalar yarim doira shaklida logopedga qaragan holda o'tiradilar. Logoped bolalarga nayning rasmini ko'rsatadi va bolalardan lablari bilan nay hosil qilish so'raladi. Avval logoped nay chalishga taqlid qilishni bolalarga o'zi ko'rsatib beradi. So'ngra bolalardan talaffuz etish so'raladi. "Nay chalinyapti" deganda bolalar lablari bilan nay chalish harakatini bajaradilar. "Kuy tugadi" deyilganda bolalar lablarini avvalgi holatga keltiradilar. Mashq bir necha marta takrorlanadi va aniq bajarilishi logoped tomonidan kuzatib boriladi.



## «O'rmonda» o'yini

**Maqsad:** Lablar va pastki jag' harakatlarini faollashtirish.

**Jihoz:** Savatlar.

**O'yinning borishi:** Bolalar doira bo'lib turadilar. Ularning qo'lida savatchalar bor. Bolalar o'rmonga qo'ziqorin tergani ketishyapti. Lekin bitta bola o'rmonda adashib qoldi. Bolalar o'rtoqlarini qidirishyapti. "Au-au qayerdasan?". Logoped har bir bola au-au tovushlarini qanday talaffuz etayotganini kuzatib borishi kerak. Au-tovushlarini talaffuz etayotganda pastki jag'imiz bir oz pastga tushadi, lablar dumaloq holatda bo'ladi. Ushbu mashq bolalar tomonidan to'g'ri bajarilishi kuzatib boriladi.

## «Quvnoq tilcha» o'yini

**Maqsad:** Bolalarda nutq apparati a'zolari harakatini rivojlantirish.

**O'yinning borishi:** Bu o'yinni bolani qiziqtirgan holda olib borish kerak. Logoped bolaga uning og'iz bo'shlig'ini "uy" deb tasavvur etishni aytadi. Bu uychada kichkinagina, quvnoqqina tilcha yashaydi. Tilcha erta turib oynalarni ochib, xonaga toza havo kiritadi. Bunda bola og'zini ochadi. Tilcha yuzini yuvadi, tili bilan lablarini yalaydi. "Choy ichsin" deganda, bola tilining uchini ikki chetini buklagan holda havoni ichiga tortadi. Logoped o'yinni davom ettiradi. «Tilchamiz nonushta qilgandan so'ng o'ynagani tashqariga chiqadi», degach, bola ikki lunjini shishiradi. So'ng tilcha "toshdan toshga sakrasin" deganida, bola til uchi bilan birma-bir tishlariga tekkizib chiqadi. Logoped endi tilini "otda sayrga chiqdi" deganida, bola tilini uchini tanglayga botirib ot tuyoqlarining ovozigga o'xshash ovoz chiqaradi. Bu jarayon davomida bolaning lablari goh kulgu, gox cho'chchaygan holatida bo'ladi. Albatta, bola bu mashqlarni logoped bilan birgalikda taqlid asosida bajaradi. Keyinroq esa mustaqil ravishda bajarishni boshlaydi.

## «Qo‘g‘irchoq uxlamoqchi» o‘yini

**Maqsad:** Pastki jag‘ harakatini rivojlantirish.

**O‘yinning borishi:** Logoped bolalarga murojaat qilib shunday deydi: Qaranglar, sizlar bilan o‘ynab qo‘g‘irchog‘imiz charchab qolibdi. Uning uxlagisi keldi. U chuqur nafas olib esnayapti. Logoped bolalarga bir necha marta esnashni ko‘rsatib beradi. Esnaganimizda og‘zimiz ochiq holda, chuqur nafas olamiz, pastki jag‘imiz esa pastga tushgan holda bo‘ladi. Topshiriqni ko‘rsatib bergandan so‘ng, logoped bolalarning uni to‘g‘ri bajarib borishlarini kuzatadi.

## FONEMATIK IDROKNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN O‘YINLAR

### «Qizil-oq» o‘yini

**Maqsad:** Eshituv idrokini rivojlantirish, so‘zdagi tovushni aniqlash.

**Jihoz:** Har bir bolaga 2 tadan doirachalar (qizil va oq) beriladi.

**O‘yinning borishi:** Logoped, bolalardan diqqat bilan quloq solishni va berilgan tovush qaysi so‘zda ishtirok etayotganligini aniqlashni so‘raydi. Agar so‘zda tovush ishtirok etsa, bolalar qizil doirachani, agar ishtirok etmasa oq doirachani ko‘tarishlari kerak.

### «Tovush qayerda?» o‘yini

**Maqsad:** Tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlash.

**Jihoz:** Rangli karton qog‘oz (karton qog‘oz eniga chizilgan chiziqalar bilan 3 ga bo‘linadi, faqat kesilmaydi) va fishka (bayroqcha yoki doiracha).

**O‘yinning borishi:** Logoped so‘zni talaffuz qiladi. Bolalar berilgan tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlaydilar. Tovush so‘zning boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelganligiga qarab, fishka chiziqning birinchi, ikkinchi yoki uchinchi qismiga

qo'yiladi. Bunday o'yin, logoped stolida katta format qog'oz bilan yoki har bir bolaga alohida karton qog'oz tarqatib chiqqan holda ham olib borilishi mumkin. Bolalar avval, tovushning so'zni boshida kelgan holatini, keyin esa so'zning oxirida kelgan holatini aniqlaydilar. Buni yaxshi o'zlashtirib olganlaridan keyingina, so'zning o'rtasida kelishi mumkin bo'lgan holatlar ko'rib chiqiladi.

### «Kim ko'proq topadi?» o'yini

**Maqsad:** Rasm asosida so'zdagi berilgan tovushni aniqlash.

**Jihoz:** Berilgan tovush ishtirok etgan so'zlar rasmi tasvirlangan syujetli rasm.

**O'yinning borishi:** Logoped bolalarga tegishli mavzuga oid syujetli rasm ko'rsatadi, masalan «Polizda». Bolalar rasmni diqqat bilan ko'rib chiqadilar. Logoped bolalarga: «Bolalar polizda nima terishmoqda?» degan savol bilan murojaat qiladi, bolalar javob beradilar. Keyin esa «Qaysi predmetlar nomida «R» tovushi (s tovushi va hokazo) bor?» ko'rinishida vazifa topshiriladi.

Har bir to'g'ri topilgan so'zga doiracha beriladi. Kim ko'proq doiracha olsa, o'sha bola g'olib hisoblanadi.

### «Baliq ovi» o'yini

**Maqsad:** Lug'at boyligini oshirish, tovushning so'zdagi o'rnini aniqlash.

**Jihoz:** Metall skrepkalar, predmetli rasmlar, qog'ozli korobka, magnitli qarmoq. Skrepkalar predmetli rasmlarga o'rnatiladi.

**O'yinning borishi:** Bolalar navbat bilan qarmoq, yordamida predmetli rasmlarni tuta boshlaydilar va nomlaydilar. Tegishli tovushning (masalan «R» tovushi) so'zda bor yoki yo'qligini, so'zdagi o'rnini (boshida, oxirida, o'rtasida) aniqlaydilar. To'g'ri javob uchun ochko bilan taqdirlanadi. Ochkosi ko'p bola g'olib hisoblanadi.

## «S» TOVUSHINI TO'G'RI TALAFFUZ ETISHGA QARATILGAN O'YINLAR

### «Nasos» mashqi o'yini

**Maqsad:** «S» tovushini nutqga kiritish.

Bolalar «S» tovushni to'g'ri talaffuz etishlari uchun lab, til holati va havo oqimining til o'rtasidan o'tishiga e'tibor berib borish kerak.

**O'yinning borishi:** Bolalar stulchada o'tirishadi. Logoped bolalarga shunday deydi:

— Hozir biz velosipedda sayr qilamiz. Hamma velosipedda sayr qilishni yaxshi ko'radi. Velosipedda sayr qilishdan avval uning kamerasiga havo yuborilgan-mi, yo'q-mi tekshiramiz. Velosiped uzoq vaqt minilmaganligi sababli kamerasi bir oz bo'shab qolibdi. Unga dam (havo kiritish) berish kerak. Nasos bilan kameraga havo yuboramiz. Nasosdan chiqayotgan havo «s-s-s» deb ovoz chiqaradi.

Bolalar avval birma-bir, keyin birgalikda nasos harakatiga taqlid qilib, kameraga havo yuboradilar. Kameraga havo yuborish vaqtida «s-s-s» tovushini talaffuz qilish kuzatib boriladi. Topshiriq bir necha marta takrorlanadi, shuningdek «s-s-s» tovushi alohida - alohida, hamda birgalikda talaffuz ettiriladi.

### «Jimlik» o'yini

**Maqsad:** «S» tovushini nutqga qo'yish.

**Metodik ko'rsatma:** «S» tovushining to'g'ri artikulyatsiyasiga e'tibor berib borish. Bolalarda «S» tovushining aniq talaffuzini hosil qilishga erishish.

**O'yinning olib borilishi:** Bolalar stulchalarda yarim doira shaklida o'ti-radilar. Logoped bolalarga shunday deydi:

— Bolalar hammamiz bog'chamiz bog'ida sayr qilib kelganimizdan so'ng charchaymiz. Tushlik vaqtida uxlaymiz. Lekin oramizda uxlashni yomon ko'radigan bolalar ham uchraydi. Ular bizga halaqit berishadi. Shunda biz bolalarga qanday murojaat etamiz? – Logoped avval bolalarga bosh barmog'ini og'ziga yaqinlashtirib «tsss», «tsss, deb talaffuz etadi. Bolalar logoped

ketidan tovushlarni bir necha marta takrorlaydilar. Logoped bolalar topshiriqni aniq va to'g'ri bajarishlarini kuzatib boradi. O'yin davomida to'g'ri talaffuzni shakllantirish bilan birga qo'lning nozik harakatlarini rivojlantirishga ham e'tibor beriladi.

### «O'rmon shovullaydi» o'yini

**Maqsad:** «Sh» tovushini nutqda hosil qilish.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar «Sh» tovushini to'g'ri talaffuz etishlariga erishish. «Sh» tovushini talaffuz etganda lablar, tilning holatlariga, havo oqimining til o'rtasidagi o'tishiga ahamiyat berish zarur.

**O'yinning borishi:** Logoped bolalarga yozda bog' yoki o'rmonda sayr qilganliklarini eshitishni taklif etadi. U yerda balanda daraxtlarni ko'rganliklarini, uzun-uzun shohlarida barglari ko'p ekanligini eslashadi. Shamol esganda daraxtning shohchalari tebratib «sh-sh-sh» degan ovoz chiqaradi. Avval shamol sekin esadi, bunda bolalar sekin ovozda «sh-sh-sh» deb talaffuz etadilar. Asta-sekin shamol kuchayib boradi. Daraxtlarning barglari kuchli tebranadi. Bunda bolalar kuchli ovoz bilan «sh-sh-sh» deb talaffuz etadilar. So'ngra logoped bolalarga qo'llarni daraxtning shohchalariga o'xshab yuqoriga ko'tarishlarini va shamol esganda daraxtlarning shovullashiga o'xshash «sh-sh-sh» deb ovoz chiqarishlarini taklif etadi. Logoped tovushni birgalikda, so'ngra esa alohida-alohida talaffuz etishni tavsiya etadi.

Bolalar «Sh» tovushni talaffuz etayotganlarida nutq a'zolari, ya'ni lablar, til harakatlarini, havo oqimining to'g'ri yo'naltirilganligini kuzatib boriladi.

### «Sayrda» o'yini

**Maqsad:** «Sh» tovushini nutqda hosil qilish.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar nutqida «Sh» tovushini hosil qilish. «Sh» tovushini talaffuz etganda lab-til holatiga, havo oqimining to'g'ri o'tishiga e'tibor berish.

**O'yinning borishi:** Bolalar logopedga qaragan holda yarim doira shaklida o'tiradilar. Logoped: «Bolalar bahor juda go'zal fasl. Daraxtlar barg chiqaradilar, gullar ochiladi. Ayniqsa, bahorda tog' manzarasi juda chiroyli bo'ladi. Tog'da lolalar ochiladi, hamma joylar qip-qizil rangda bo'ladi. Biz hozir siz bilan toqqa lola tergani boramiz. Logoped bilan bolalar lola terish harakatini bajaradilar. Biz charchadik, o'tirib dam olamiz. Birdaniga toshlar orasidan ilon ko'rindi. Ilon qanday ovoz chiqaradi? «vishsh-vishsh». Bolalar ilonning ovozigga taqlid qiladilar. Logoped esa tovushning to'g'ri artikulyatsiyasini va talaffuzini kuzatib boradi. Logoped bolalardan tovushni birgalikda, so'ngra esa alohida-alohida talaffuz etishni tavsiya etadi.

«Sh» tovushi talaffuz etilishida nutq apparati, lab, til harakatlari, havo oqimining to'g'ri yo'natirilganligi kuzatib boriladi.

### «Qoqigul» o'yini

**Maqsad:** «S» tovushini bo'g'inlarda to'g'ri va aniq talaffuz etishga o'rgatish.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalarga «S» tovushini ochiq va yopiq bo'g'inlarda to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Bolalar doira shaklida o'tiradilar. Doiraning o'rtasida bitta bola turadi. O'rtada turgan bola «S» tovushini ifodalaydi va qoqigulning markazi hisoblanadi. Qolgan bolalarga logoped unli tovushlarni taqsimlaydi, ular qoqigulning oq gullaridir. Logoped o'yinimiz boshlandi, deganda «S» tovushi, ya'ni qoqigulning sariq markazi oq gullarga qo'shiladi. Bunda «S» tovushini ifodalagan bolalar oldiga kelib, ketma-ketlikda bo'g'inlarni talaffuz eta boshlaydi. «sa-so-si-su-se». So'ngra bolalar o'rin almashib boradilar. Har bir bola «S» tovushini ifodalashi zarur.

Logoped bolalarning bo'g'inlarni aniq va to'g'ri talaffuz etishlarini kuzatib boradi. Unli tovushlarni ifodalovchi bolalarda ifodalayotgan tovushni eslab qolishini tushuntiradi.

## «Do'kon» o'yini

**Maqsad:** «S» tovushini so'zlarda to'g'ri va aniq talaffuz etishga o'rgatish.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalarga «S» tovushini so'z va gaplarda aniq talaffuz ettirish maqsadida avval «S» tovushni to'g'ri va aniq talaffuz eta oladigan bolalar chiqadi. Agar bola predmetlarning nomini aytishga qiynalsa, logoped yordam beradi. Ular predmetlarning nomini aytganlarida «S» tovushni boshqa tovushlarga nisbatan cho'zibroq talaffuz etishlari lozim.

**O'yinning borishi:** Logoped stol ustiga «S» tovushi bo'lgan o'yinchoq yoki rasmlarni qo'yadi va bolalarni navbat bilan chaqiradi. Bolalar do'konga kelib istagan o'yinchoqlarini xarid qiladilar. Uni o'rtoqlariga ko'rsatib turib, nomini baland ovoz bilan aytadilar.

Masalan: Soat, sovun, sandiq, kosa, doska, gilos, avtobus. Bolalardan so'zlarni talaffuz qilganlarida bo'g'inlarga ajratib talaffuz qilish so'raladi. «S» tovushi so'zning boshida, o'rtasida, oxirida kelishi so'raladi.

«Sh» tovushni so'zlarda to'g'ri va aniq talaffuz etishga oid o'yinda yuqorida ko'rsatilgandek o'ynaladi. Faqat «Sh» tovushi ishtirok etgan o'yinchoq va rasmlardan foydalaniladi: sholg'om, sham, shaftoli, oshpaz, tosh, tish.

### «SH» TOVUSHNI «S» TOVUSHIDAN FARQLASHGA OID O'YIN

#### «Diqqatli bo'l, xatosiz takrorla» o'yini

**Metodik ko'rsatma:** Bolalarni bo'g'in, so'z va gaplarda «S» va «Sh» tovushlarini aniq talaffuz etish va bir-biridan farqlashga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Bolalar qator bo'lib o'tiradilar. Logoped bolalarga bo'g'inlarini aytadi, bolalar esa bo'g'inlarni xatosiz talaffuz etishlari kerak.

Sa-sha, so-sho, su-shu, si-shi, as-ash, os-osh, us-ush, is-shi. Bo‘g‘inlar bir necha marta takrorlanadi. Bo‘g‘inlardan so‘ng so‘zlarga o‘tiladi.

Sim-shim, Qosim-Xoshim, soli-sholi, so‘ri-sho‘ri, kasb-kashf. Bolalarning so‘zlarda «S» va «Sh» tovushlarini to‘g‘ri, aniq talaffuz etishlari kuzatib boriladi. Qaysi so‘zda «S» tovushi, qaysi so‘zda «Sh» tovushni kelganligi so‘rab boriladi. «S» va «Sh» tovushlarni farqlash she‘rlardan foydalanib mustahkamlanadi.

Masalan: «Mushuk - sichqon» she‘ri:

Quvlashar,  
Xo-xolashar,  
O‘g‘il-qizlar ko‘chada  
Biri mushuk,  
Biri sichqon,  
Sichqon yelday uchadi,  
Qachon ko‘rsang,  
Bo‘lib xursand,  
Bolalar shodon kular,  
Mushuk-sichqon,  
O‘ynashar,  
Urishqoq emas ular.

## «R» TOVUSHINI TO‘G‘RI TALAFFUZ ETISHGA QARATILGAN O‘YINLAR

### «Otlar» o‘yini

**Maqsad:** «R» tovushini nutqda hosil qilish.

**Metodik ko‘rsatma:** Bolalarda «R» tovushini to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish. «R» tovushini talaffuz etganda til yuqori tishlar orqasiga ko‘tarilgan bo‘ladi, til uchi tebranish kerakligi bolalarga tushuntiriladi.

**O‘yinning borishi:** Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh bolalari ot haydovchilar, ikkinchi guruh bolalari esa “otlarga” bo‘linadi. Otlarni tasvirlovchi bolalar ikkitadan bo‘lib



qo‘l ushlab turadilar. Otlar haydovchining boshqaruvi ostida otlardek yuguradilar. Logopedning buyrug‘iga binoan haydovchilar otlarni «drrr» deb to‘xtatadilar. Bunda logoped bolalarning aniq talaffuz etishini kuzatib boradi. So‘ngra bolalar rollarini almashadilar.

### «Qarg‘alar» o‘yini

**Maqsad:** Bolalar nutqiga «R» tovushini kiritish.

**O‘yinning mazmuni:** Bolalar 3 guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh bolalari archalarni tasvirlab, qo‘llarini pastga tushirgan holda doira o‘rtasida turadilar. 2-guruh bolalari qarg‘alar bo‘lib doira ichiga sakrab kirishadi va «qar-qar» deb qag‘illashadi. 3-guruh bolalari kuchukni tasvirlaydilar. Logoped: «Qarg‘alarni ko‘rib itlar yugurishdi» deganda, qarg‘alarni tasvirlagan bolalar qo‘llarini qanot qilib uchishni tasvirlab qar-qar deb qag‘illashadi. 3-guruh kuchukni tasvirlagan bolalar «r-r-r» deb itlarning ovozigina taqlid qilib irillashadi va qarg‘alarni ushlab uchun doira ichiga kirishga harakat qiladilar. O‘yin bir necha marta takrorlanadi va o‘yinda bolalar rollarni almashadilar.

**Metodik ko‘rsatma:** Bolalar «R» tovushini to‘g‘ri talaffuz etishlari qarg‘a va kuchukning ovozigina to‘g‘ri taqlid qilishini kuzatish.

### «Mototsikl» o‘yini

**Maqsad:** Bolalar nutqida «R» tovushini hosil qilish.

**Metodik ko‘rsatma:** «R» tovushini talaffuz etganda til, lablar harakatlarining to‘g‘ri bajarilishiga erishish.

**O‘yinning borishi:** Bolalar bir qator bo‘lib tizilib o‘tiradilar. Logoped bolalarga mototsikl rasmini ko‘rsatadi. «Hamimiz mototsikl haydashni o‘rganamiz. Qo‘llarimizni mototsikl ruligina qo‘yamiz». Bolalar qo‘l harakatini bajaradilar. «Endi oyoqlarimiz bilan mototsikl pedalini bosamiz. Mototsiklni yurgizganimizda «trr-trr», degan ovoz chiqadi. Bolalar bir ovozdan mototsiklning ovozigina taqlid qiladilar. Logoped bolalarning tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishini kuzatib boradi.

«R» tovushini talaffuz etganda nutq apparati holatiga, til uchining tebranishiga alohida e'tibor beriladi.

### «Rubob chalamiz» o'yini

**Maqsad:** Bolalarning «L» tovushini to'g'ri talaffuz etishlariga erishish.

**O'yinning borishi:** Tarbiyachi bolalarga: «Hozir sizlar orkestr bo'lasizlar. Orkestrda ko'p musiqa asboblari chalindi. Sizlar rubob chalasizlar», deb rubobni qanday ushlab chalish kerakligini ko'rsatadi (chap qo'li bilan huddi rubobning pardasini ushlayotgandek, o'ng qo'li bilan esa torni chertayotgandek harakat qilib «la-la-la», deb aytadi). Tarbiyachining ishorasi bilan hamma bolalar rubob chaladilar.

### «Rasmlarni tanla» o'yini

**Maqsad:** «S-Sh» tovushlarini bir-biridan farqlashga o'rgatish.

**O'yinlarning borishi:** Nomida «S» va «Sh» tovushi bor bo'lgan rasmlar, so'zlar tanlanadi.

Tarbiyachi bolalarni ikki guruhga ajratadi, birinchi guruh bolalari «S» tovushi bor bo'lgan rasmlarni tanlab oladi. Ikkinchi guruh bolalari esa «Sh» tovushi bor bo'lgan rasmlarni tanlaydi. Tarbiyachining stoli ustiga rasmlar o'ng tomoni bilan tartibli qilib qo'yilgan bo'ladi. Har bir guruhdan bittadan chiqib, o'zlariga ta'luqli bo'lgan tovush uchun rasm olib, joylariga o'tiradilar. Hamma rasmlarni bolalar olib bo'lgandan so'ng, har bir bola o'rnidan turib, rasmlarning nomini aytadi.

Rasmlarni nomini aytganda «S» yoki «Sh» tovushini boshqa tovushlardan ajratib talaffuz etishlari kerak.

Qolgan bolalar rasm nomini aytayotgan bola uni to'g'ri tanlaganmi yoki yo'qmi kuzatib boradilar. So'ngra bolalarning o'zlari shu tovushlar uchun so'z o'ylaydilar va aytadilar.

Tarbiyachi «S» va «Sh» tovushlari bor bo'lgan so'zlarni aytadi, bolalar esa bu so'zlarni takroriy aytganda «S-Sh» tovushini to'g'ri talaffuz etishlari kerak. Masalan, shosse, mashinist, Shamsiya, sherst va boshqalar.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalar so'zlardan «S» va «Sh» tovushini ko'rsatib, boshqa tovushlarga nisbatan cho'zibroq talaffuz etishlari «S» va «Sh» tovushi qayerda kelishini aniqlashlari lozim.

### **«Z» TOVUSHINI TO'G'RI TALAFFUZ ETISHGA QARATILGAN O'YINLAR**

**Maqsad:** «Z» tovushini nutqda to'g'ri va aniq talaffuz etishga erishish.

#### **«Chivinlar» o'yini**

**Maqsad:** Logoped bolalar bilan qanday qilib gulzorda sayrga borganliklari haqida suhbat o'tkazadi.

Bolalar esingizdami, biz sizlar bilan gulzorda sayrga borgan edik. Kechki payt chivinlar vizillab kelib, bizni xo'p chaqqan edi. Hozir sizlar bilan «Chivinlar» o'yinini o'ynaymiz, deydi. Bolalar ikki guruhga bo'linadilar.

1-guruh bolalari "chivinlar", 2-guruh bolalari esa sayr qilib yuruvchilar bo'lishadi. Chivin bo'lgan bolalar «z-z-z» deb, sayr qilib yurgan bolalar ketidan yugurishadi. Sayr qilib yurgan bolalar esa chivinlardan qochishga, yashirinishga harakat qilib, uylarga yuguradilar (xona burchagidagi stulchalar uycha hisoblanadi). Ular stulchalarga o'tiradilar. So'ngra bolalar rollarni almashadilar.

#### **«Arrakashlar» o'yini**

**Maqsad:** «Z» tovushini nutqda hosil qilish.

**Metodik ko'rsatma:** Bolalarda «Z» tovushini to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish. «Z» tovushining to'g'ri artikulyatsiyasiga e'tibor berish.

**O'inning borishi:** Bolalar bir-birlariga qaragan holda o'tiradilar. Logoped bolalarga o'tin arralayotgan bolaning rasmini ko'rsatadi va shunday deydi: «Bolalar, hozir biz sizlar bilan qishga o'tin tayyorlaymiz. Avval logopedning o'zi bolalarga o'tinni arralash harakatini ko'rsatadi. Harakat davomida «z-z-z» degan arra

tovushiga taqlid qiladilar. So‘ng bolalar ham o‘tin arralash harakatini bajargan holda «z-z-z-z» degan tovushlarni talaffuz etadilar. Logoped bolalarga «Z» tovushini hosil qilishda til, lab harakatlari qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib beradi va bolalarning to‘g‘ri talaffuz etishlarini kuzatib boradi.

### «Rasmning nomini ayt» o‘yini

**Maqsad:** «Z» tovushini so‘zlarda to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish.

**O‘yinning mazmuni:** Bolalar o‘tirishadi. Logopedning stoli ustida teskari tomoni bilan rasmlar to‘p qilib qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir bolaga ham xuddi shu rasmdan berib chiqiladi. Logoped kimni chaqirsa, shu bola chiqib, to‘pdagi rasmlardan birini oladi va uni bolalarga ko‘rsatib baland ovoz bilan – «Men zamburug‘ni oldim, kimda xuddi shu rasmning jufti bo‘lsa, shu bola o‘rnidan tursin», deydi. O‘rnidan turgan bola ham rasmni ko‘rsatib: «Mendagi rasmda ham zamburug‘ tasvirlangan», deydi. Bolalar har juft rasmni ustiga qo‘yadilar. O‘yin shu tariqa to stol ustidagi rasm tamom bo‘lguncha davom etadi.

«Z» tovushi so‘zning boshida, o‘rtasida, oxirida kelgan rasmlardan foydalaniladi. (Zanjir, qo‘ziqorin).

**Metodik ko‘rsatma.** Bolalar nomida «Z» tovushi bor bo‘lgan rasmni baland ovozda, aniq qilib, «Z» tovushini boshqa tovushdan ajratib talaffuz etishlari lozim.

### «CH» TOVUSHINI NUTQQA QO‘YISHGA OID O‘YIN

#### «Poyezd» o‘yini

**Maqsad:** Bolalar nutqiga «Ch» tovushini kiritish.

**O‘yinning mazmuni:** Bolalar vagonlarda (ketma-ket qilib qo‘yilgan stulchalarda) o‘tiradilar. Logoped poyezd haydovchisini tayinlaydi. U birinchi qo‘yilgan stulda o‘tiradi. Haydovchi poyezd jo‘nab ketishi uchun «u-u-u» deb signal beradi. Poyezd jo‘nab ketadi. Bolalar (vagonlar) poyezd g‘ildiraklari harakatini anglatuvchi harakatlarni bajaradilar “ch-ch-ch-ch” deb ovoz

chiqaradilar. «Logoped poyezd stansiyasiga yetib keldi» deyishi bilan poyezd to'xtaydi va bolalar tovushni talaffuz qilishdan to'xtaydilar.

So'ngra yangi haydovchi tayinlanib o'yin davom etadi.

Logoped bolalarning «Ch» tovushini talaffuz etayotganda nutq apparatini to'g'ri holatini, «Ch» tovushini to'g'ri talaffuz etishini kuzatib borishi lozim.

## «J» TOVUSHINI TO'G'RI TALAFFUZ ETISHGA QARATILGAN O'YIN

### «Asalarilar» o'yini

**Maqsad:** «J» tovushini nutqqa kiritish.

**O'yinning mazmuni:** Bolalar 2-guruhga bo'linadilar. Bir guruh bolalar «gullar» bo'ladilar, 2-guruh bolalari esa asalarilar bo'ladilar. Asalarilar gullar atrofida «j-j-j» deb g'ing'illab uchishadi. So'ngra bolalar almashtiriladi. Asalari bo'lgan bolalar «J» tovushini aniq talaffuz etishlari o'rgatiladi.

Bolalar «J» tovushini to'g'ri talaffuz etishlari uchun logoped lab va tilning to'g'ri holatini va ichdan chiqayotgan havo oqimini diqqat bilan kuzatib turishi kerak.

## TIL ORQA «K» , «G» TOVUSHLARINI HOSIL QILISHGA OID O'YINLAR

### «Kak-ku» o'yini

**Maqsad:** «K» tovushnini nutqda hosil qilish.

**O'yinning borishi:** Bolalar doira shaklida o'tiradilar. Logoped o'rmon tasvirlangan rasmni ko'rsatadi. «Daraxt shohlariga kakku qushlari qo'nibdi. Ular juda chiroyli sayrashmoqa. O'rmondan «kak-ku, kak-ku, kak-ku» degan ovozlar kelmoqda. Bolalar kelinglar biz ham kakku qushi bo'lib uchamiz va bir-birimizni chaqiramiz». Bolalar qo'llarini qush qanoti kabi harakatlantiradilar va «kak-ku, kak-ku, kak-ku» deb ovoz chiqaradilar. Bolalar guruh bo'lib va alohida tovushlarni talaffuz etadilar.

### «Kaptarlarga don ber» o'yini

**Maqsad:** Bolalar nutqida «G» tovushini hosil qilish. Tovushlarni to'g'ri artikulyatsiyasiga erishish.

**O'yinning borishi:** Bolalar yarim doira shaklida o'tiradilar. Logoped bolalarga ertak aytib beradi.: « Bor ekanda, yo'q ekan. Qadim zamonda bir bola yashagan ekan. Bola qushlarni, ayniqsa, kaptarlarni yaxshi ko'rar ekan. U kaptarlarga in quribdi. Kaptarlar bolaning uyiga mehmonga kelishar ekan. Har kuni ertalab bola kaptarlarga don sochib, ularni «gul-gul-gul», deb chaqirar ekan. Bu ovozni eshitgan kaptarlar darhol uchib kelib, donlarni cho'qib, bolaga «gu- gu- gu» deb rahmat aytilishar ekan». Logoped bitta bolani o'rtaga chiqarib kaptarlarni chaqiradi. Boshqa bolalar rollari almashinib boradi.

Logoped bolaning topshiriqni aniq va to'g'ri bajarishini nazorat qilib boradi.

### «Kim mehmonga keldi?» o'yini

**Maqsad:** «K-G» tovushlarini farqlashga o'rgatish.

**O'yinning borishi:** Bolalar bir qator bo'lib o'tiradilar. Logoped bolalarga murojaat qiladi. «Bolalar bugun bizning bog'chamizga qushlar, parrandalar mehmonga kelishibdi. Biz ularni aniqlashimiz kerak». Logoped bolalarga rasmlarni ko'rsatadi. Bolalar esa rasmdagi qush yoki parrandaning ovoziga taqlid qiladilar. Logoped:

— Qaranglar bolalar, qushlar uchib kelishdi —, deydi va rasmlarni ko'rsatadi. Bolalar rasmga qarab «kak-ku, kak-ku, gu-gu-gu-gu» deb ovoz chiqaradilar. Logoped g'oz, xo'roz, tovuq rasmni ko'rsatadi. Bolalar ularning ovozlari taqlid qiladilar. O'yin davomida bolalar guruh bo'lib javob beradilar. So'ngra logoped har bir bolaga alohida rasmlarni ko'rsatadi hamda bolaning to'g'ri va aniq talaffuz etishini aniqlaydi.

### DUDUQLANUVCHI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN O'YINLAR

Duduqlanuvchi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish samarali kechadi. Duduqlanishni yo'qotishda qo'llaniladigan

o'yin metodikasi bolalardagi mohirlikni, faollikni, mustaqil muloqot usullarini shakllantirishga qaratilgan. Turli o'yinlar tizimida bolalar o'yin va o'yindan tashqari, ammo odamlarning hayotiy munosabatlarini aks ettirgan hollarda o'zini tutish qoidalarini o'zlashtiradilar. Natijada o'zlashtirilgan munosabat shakllari duduqlanuvchi bolalarning axloqi va nutqini qayta qurishga va nuqsonni yo'qotishga zamin yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarni duduqlanishini bartaraf etishda foydalaniladigan o'yin turlari mavjud. Bularga:

- didaktik o'yinlar;
- harakatli o'yinlar;
- dramatishtizatsiyalashtirilgan o'yinlar;
- sukut saqlash rejimiga qaratilgan o'yinlar;
- shivirlab gaplashishga qaratilgan o'yinlar;
- ashula aytish bilan olib boriladigan o'yinlar kiradi.

Bolalarda duduqlanishni bartaraf etishda yuqorida ko'rsatilgan barcha o'yinlardan foydalanish mumkin.

### **Didaktik o'yinlar**

Bunda ko'ruv, nafas, ovoz, eshitish, tovushlar tallaffuzini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o'yinlar o'tiladi. 6-7 yoshli duduqlanuvchi bolalar uchun didaktik o'yinlardan «*ovozidan bilib ol*», «*shaharlarga sayohat*», «*xat*» o'yinlarini misol qilish mumkin. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar masalan: «*loto, domino, mozayka, shashka, piramida*» o'yinlari esa duduqlanuvchi bolalarning ko'ruv va eshituv idrokini, diqqatini, mayda motorikasini, xotirasini rivojlantirishda xizmat qiladi.

### **«Ovozidan bilib ol» o'yini**

*(6-7 yoshli bolalar uchun)*

Bir bola orqasini o'girib turadi, boshqalari navbat bilan qo'llaridagi predmetlarni polga tushuradilar. Logoped yerga

tushayotgan narsalarni ko‘rib turadi va shivirlab «Bu tushgan narsa nima?» deb so‘raydi, bola: «Bu tushgan narsa qalam, bu esa chizg‘ich» deydi va va hokozolarni aytadi.

### «Shahar bo‘ylab sayohat» o‘yini

Logoped bolalar soniga qarab rasmlar tanlab oladi. Odamlar rasmi: ishchi, o‘quvchi, sportchi, ona va bola, savat ko‘targan kampir.

Transport: tramvay, avtobus, taksi va boshqalar.

Bino va bezaklar: fontan haykal, xiyobon.

Mashina markalari: neksiya, tiko, jiguli, damas.

Gullar; lola, siren, atirgul va boshqalar. Rasmlar to‘plami xonaning turli gomonlariga qo‘yiladi. Bolalar shaharga topshiriq bilan boradilar va aniqlaydilar.

Shaharda kimlar yashaydilar, qanday transportlarda yuradilar, shaharda qanday binolar va bezaklar, xushmanzara joylar bor, hiyobonda qanday gullar o‘sadi. Topshiriqqa asosan topilgan rasmlarni olib, bolalar logoped yoniga qaytadilar va birgalikda ko‘rganlarini gapirib beradilar.

**Harakatli o‘yinlar.** Duduqlanuvchi bolalar bilan sekin bajariladigan harakatli o‘yinlar o‘tkaziladi. Chunki bolalarda nafas va nutq su‘rati buzilmasligi kerak. Shuning uchun oddiy harakat bilan bajariladigan harakatli o‘yinlar bajariladi, ya‘ni koptok, obruch, lenta, bayroqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar. Bunday o‘yinlarning asosiy maqsadi bolalarning umumiy harakati va nutqini mustahkamlashga qaratilgan.

### «Koptok bilan bajariladigan harakatli o‘yinlar»

I) Bolalar davra qurib turadilar, ularning har birida koptok. Logoped ko‘rsatmasiga ko‘ra ular koptokni bir qo‘ldan ikkinchi qo‘liga otib ilib oladilar, osmonga otadilar, yonidagilarga uzatadilar, yarim o‘tirgan holda o‘z atroflarida dumalatadilar, koptokni tushirib yubormay qo‘ldan qo‘lga eng ko‘p o‘tkazgan o‘yinchi g‘olib hisoblanadi.



2) Bolalar sanash orqali “ovchini” saylaydilar, u stulga o‘tiradi, qo‘lida 2-3 ta koptok, xushtak chalingach “quyonlar” chiziqdan ichkariga kirib “ovchi” atrofida yugura boshlaydilar, shundan keyin ikkinchi signal chalingach “quyonlar” chiziqdan tashqariga yuguradilar, “ovchi” esa ularga koptok otadi, koptok kimga tegsa u “ovchi” vazifasini bajaradigan bo‘ladi.

3) “Kim ushlaydi?” Bolalar ikkitadan bo‘lib bo‘linadilar va navbatchidan yog‘och qoshiqlar olib, unga sharchalar soladilar va tez qadam tashlab xonaning oxiriga yurib boradilar. Maqsad, sharchani tushirib yubormaslik. Murakkablashgan varianti: Qoshiq, bilan yuruvchining ko‘zini bog‘lab qo‘yiladi. Bunday juftliklarga navbat berish sanash orqali bajariladi.

**Dramalashtirilgan o‘yinlar (sahnalashtirilgan).** Dramalashtirilgan o‘yinlar duduqlanuvchi bolalarda tassavvur, shaxsining shakllanishi, bolaning o‘yin davomida faolligini va nutqini rivojlantirishga qaratiladi.

### «O‘yinchoqlar uchun atele» o‘yini

**O‘yinga tayyorgarlik:** Logoped topshirig‘iga ko‘ra bolalar atelega (kiyim tikish ustaxonasiga) ekskursiyaga boradilar. Mashg‘ulotda esa rasmlarga qarab «ateleda» degan savol-javobdan iborat suhbat o‘tkaziladi. Har bir bola ko‘rganlarini gapirib beradilar.

**Jihozlar:** Qo‘g‘irchoq, o‘yinchoqlar, dazmol, qaychilar, iplar, santimetr, ignalar, gazlama bo‘laklari, ilib qo‘yish uchun «O‘yinchoqlar uchun atele», Ochiq, «Yopiq» deb yozilgan karton bo‘lagi.

**Rollar:** Tikuvchi, buyurtmachi, atele mudirasi.

**O‘yinning borishi:** Atele mudirasi ateleni ochilgani haqida xabar beradi. Tikuvchi uchun stul-stollar, tayyor namuna uchun ko‘ylaklarni ilib qo‘yish buyuriladi va kerakli jihaz tayyorlab qo‘yiladi, buyurtmachilarini qabul qila boshlaydi.

O‘yin qiziqarli o‘tishi uchun xatoliklarga yo‘l qo‘yishi, boshqa kiyimni tikib qo‘yishi yoki o‘lchamlari katta-kichik bo‘lib qolishi holatlarini aks ettirishi mumkin.

## Taxminiy dialoglar:

**Tikuvchi:** Siz nima tiktirishni istaysiz?

**Buyurtmachi:** Mana meni quyonchamga ko'ylakcha kerak (tikuvchi oldiga quyoncha o'yinchog'ini qo'yadi).

**Tikuvchi:** Gazlamangiz bormi?

**Buyurtmachi:** Oling marhamat (gazlamani uzatadi).

**Tikuvchi:** Qani quyoncha, to'g'ri turib ol-chi. Men seni o'lchamlaringni olaman (santimetr bilan quyonchani o'lchab oladi).

**Buyurtmachi:** Bizga yana qalpoqcha ham kerak.

**Tikuvchi:** Bizning atelemizda tayyor qalpoqchalar bor. Mana kiyib ko'ringlar. Balki sizlarga to'g'ri kelar.

**Buyurtmachi:** (Qalpoqchani quyonchaga kiydirib ko'radi). Yo'q bu qalpoqcha to'g'ri kelmadi. Quloqlari uchun teshikchalar yo'q ekan.

**Tikuvchi:** Unday bo'lsa qalpoqchani ikkita teshikchali qilib quyonchangiz uchun tayyorlab qo'yaman, faqat peshindan so'ng buyurtmangizni olishga keling (tikuvchi boshqa buyurtmalarni qabul qiladi).

**Tikuvchi:** Qabulimni tugataman va buyurtmalarimni bichib-tikishim kerak, deydi.

**Tikuvchi:** Kelinglar, atele ochildi, buyurtmalingiz tayyor bo'ldi. (Tikuvchi hamma buyurtmachilarga kiyimlarni tarqatadi, ular kiyib ko'radilar va xursand bo'lib ketadilar).

O'yin oxirida logoped ijrochining nutqini va rolini baholaydi. O'yinning hamma uchun qiziqarli bo'lishi logopedning pedagogik mahoratiga bog'liq. Logoped o'yinni shunday tashkil etishi kerakki, bunda haddan tashqari his-hayajonga berilishga, nutqning tezlashib ketishiga yo'l qo'ymasligi va ravon nutqni rag'batlantirishi, kerak bo'ladi.

## Sukut saqlashga qaratilgan o'yinlar

Bolalar bilan nutqsiz (gapirmasdan) didaktik o'yinlar o'tiladi. Sukut saqlash rejimi duduqlanuvchi bolani to'g'ri gapirishga, malakalarini shakllantirishga qaratilgandir. Nutqsiz

didaktik o'yinlarga, masalan «Sukut saqlashni bilasizmi?» o'yini, bolalar 5-7 minut mozaika bilan o'ynashlari, rasm chizishlari, kubik o'ynashlarini kiritish mumkin. Bunda duduqlanuvchi bolalar gapirmasdan sukut saqlaydilar.

### **«Ovozni eshitish va ko'rsatish» o'yini**

Bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar. Logoped biror ovoz chiqaradigan o'yinchoqni chaladi, masalan sunay, shiqqildoq yoki childirma. So'ngra bola ko'zini ochib qaysi o'yinchoq chalinganini gapirmasdan qo'li bilan ko'rsatadi.

### **«Shifoxonada» o'yini**

Logoped bolaga aytadi:

— Qani qarab chiqaylik-chi seni, o'yinchoqlaringning hammasi sog'lommi? Mana bu ayiqchangni qo'li osilib qolibdi, quyonchangni esa qulog'i og'riyapti, ularni davolashimiz kerak. Kim buni uddasidan chiqa oladi? (bir bola chiqadi)

*Logoped:* Yaxshi, demak sen shifokorsan! Seni o'yinchoqlaring kasal – endi ularga tinchlik, jimjitlik kerak.

(Logoped yordamida shifokor bolaning o'yinchoqlarini davolaydi, isitmasini o'lchaydi, uxlatadi, tezroq tuzalishi uchun barcha choralarni ko'radi).

«Lekin qo'g'irchoqlar uxlayotganda hech kim gapirmasligi kerak», deb logoped tushuntiradi.

O'yinga turli jihozlar: shpris, fonendoskop, dorilar, bint, paxtalar kerak bo'ladi.

O'yin yakunida bola «mehribon shifokor» degan nomini oladi.

### **Shivirlab gapirishga qaratilgan o'yinlar**

Bolaning o'zini erkin, bo'sh tutishiga qaratilgan o'yinlar o'tkaziladi.

### «Dengiz to‘lqinlanayapti» o‘yini

*Logoped:* Dengiz to‘lqinlanayapti – bir.

Dengiz to‘lqinlanayapti – ikki.

Dengiz to‘lqinlanayapti – uch

deganda bolalar qo‘l harakatlari bilan dengiz to‘lqinlashishini ifodalaydilar. Lopoped «dengiz tinchlandi» deganda bolalar qay holatda bo‘lsalar, shu holatda jim, qotib qoladilar, so‘ngra logoped har bir bolaning oldiga kelib shivirlab «sen nimani tasvirlading?» deb so‘raydi, bola ham shivirlab «to‘lqinni» yoki «tinchlangan dengizni» deb shivirlab javob beradi.

### «Topishmoqli xaltacha» o‘yini

*Logoped:* Bog‘bon barcha mevalarni terib xaltachaga soldi, lekin xaltachada sabzavotlar ham bor ekan. Bolalar siz diqqat bilan meni eshitasiz. Agar men mevalarni olsam sizlar shivirlab «ha» deysiz, agar men sabzavotlarni olsam sizlar shivirlab «yo‘q» deysiz, deb tushuntiradi.

*Logoped:* Olma daraxtda o‘sadimi?

Bolalar: «Ha».

*Logoped* (shivirlab): — Sabzi yerda o‘sadimi?

Bolalar (shivirlab) — «Ha».

*Logoped:* Bolalar sizlar daraxtda va yerda nimalar o‘shishini yaxshi bilar ekansizlar, endi nima tepada, nima pastda o‘shishini barmoqlaringiz bilan ko‘rsating. Men sizlarga shivirlab meva va sabzavotlarni aytaman, sizlar esa shivirlab, ularning qayerda o‘shishini aytasizlar va barmoqlaringizni harakati bilan ko‘rsatasizlar (pastda yoki tepada).

Bu o‘yin bolalarda mayda qo‘l motorikasi, hamda nutqni rivojlantirishga qaratilgan.

### «Ashula aytish bilan olib boriladigan» o‘yinlar

Duduqlanuvchi bolalar bilan ashulali o‘yinlar tashkil etish juda yaxshi samara beradi. Ashulali o‘yinlar qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini yaxshilaydi. Bolalar xor bilan yoki yakka holda ashula aytishlari mumkin.

Masalan: «Hosil yig‘ini» qo‘shig‘i harakatlar bilan aytiladi.

Biz savatcha ko‘tarib,  
Birga ashula aytib,  
Hosillarni tergani  
Biz dalaga boramiz.  
Biz bolalar chaqqonmiz,  
Bodringlar teramiz,  
Loviya va no‘xat  
Bizda hosil yomonmas.

Ha, ha yomonmas,  
Bizda hosil yomonmas.  
Hoy, hoy semiz baqlajon,  
Juda qorin qo‘yibsan,  
Uxlama tur tezroq,  
Savatchaga tusha qol,  
Ha ha tusha qol.  
Savatchaga tusha qol.

Biz qaytamiz uyimizga,  
Yuk tashish mashinada,  
Darvozani ochinglar,  
Daladan hosil keldi.

Shunday qilib maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarning duduqlanishini bartaraf etishda didaktik, harakatli, drammalashtirilgan, sukut saqlash rejimiga qaratilgan, shivirlab gapirishga qaratilgan qo‘shiq aytish bilan olib boriladigan o‘yin turlarini qo‘llash mumkin. Bu o‘yinlar duduqlanishda nafasni to‘g‘irlashda, pay tortilishini kamayishiga, erkin holda o‘z fikrini bayon etishga yordam beradi.

**TOVUSHLARDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF  
ETISHDA QO‘LLANILADIGAN TEZ AYTISH, SANAMA,  
CHORLASHMA, QIQILLAMA, AYTISHUV,  
CHEKLASHMACHOQ, AYTISHMA O‘YIN,  
YARASHTIRGICH, TOPISHMOQ VA SHE‘RLARDAN  
FOYDALANISH**

Tovushlardagi kamchiliklarni bartaraf etishda biz, asosan, an‘anaviy bo‘lgan tez aytish, topishmoq va she‘rlardan

foydalanib kelimiz. Shubhasiz, ular bolalarga xushkayfiyat va tetiklik bag'ishlaydi. Bundan tashqari, bolalarga berilgan logopedik topshiriqlarni oson va erkin bajarishlari uchun qulay sharoit yaratib beradi. Logopedik mashg'ulotlar va o'yinlarda tez aytish, topishmoq va she'rlardan keng foydalanish natijasida, bolalarning nutqi o'sadi, shu bilan birga nutqning ravon bo'lishida, to'g'ri ohangning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Milliy adabiyotimiz namunalari bo'lishi sanama, chorlashma, qiqillama, aytishuv, cheklashmachoq, aytishma o'yin va yarashtirgich kabi xalq og'zaki ijodi, nafaqat bolaning nutqini o'stirishda, balki ularni milliy ruhda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish va vatanparvarlik hissini uyg'otishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyida biz, o'zbek tilimizning xususiyatlaridan kelib chiqib, bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishda logopedik o'yinlardan foydalanish yo'llarini takomillashtirish borasida boy adabiy merosimizdan namunalar keltiramiz.

## TEZ AYTISHLAR

Oq choynakka oq qopqoq,  
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

Oq ot oq o't yeydi,  
Ko'k ot ko'k o't yeydi.  
Tubsiz dengiz dengizmi?  
Dengiz tengsiz dedingizmi?

Novvoy non yopar,  
Nonni novvot deb sotar.

G'ani g'ildirakni g'izillatib g'ildiratdi,  
G'ildirakni G'ani g'ildiratib g'izillatdi.

To'lqin turpni to'rda to'pladi.

Adham Rahmatga shaxmat berdimi?  
Rahmat Adhamga shaxmat berdimi?

Qo'sh qo'lqop  
Qo'shog'i ham bo'sh qo'lqop.  
Sevara savatchaga sedana soldimi?  
Nodir novvoyxonadagi novvoydan non oldimi?  
Qurilishda burilish,  
Burilishda qurilish.  
Otamning otasining oti,  
Otasining otidan ortiq.  
Tohir To'lqinning to'pidan tortdimi?  
To'lqin Tohirning to'pidan tortdimi?  
Hali Vali, Soli sholi urdi.  
To'ti tutgan to'rtta to'ti to'rda turibdi.  
Oydin oydingda onasidan oldin bordi.  
Turdi tunda o'nta to'nka to'pladi.  
Norning nordon anori narida.  
Qirg'ovul qiryodamas qirg'oqda.  
Mavluda hovlida,  
Singlisi Mavjuda qo'lida.  
Tog'am tog'da bir tog'ora tog'olcha,  
Tag'in bir tog'oracha olcha terdi.  
Soqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.  
Sabiha, Sohiba, Zabiha  
Sahifani sinchiklab o'qidi.  
To'p-to'p ko'k koptok,  
Har to'p ko'k koptokda,  
Bittadan katta ko'k koptok.  
Quvondiqning qovun qoqisi  
Qovunchidan.

Mashhura moshxo‘rdani,  
Ma’suda moshuvrani,  
Shura sho‘rvani shoshib shimirdi.

Chumchuq chug‘urchiqni cho‘qimasa,  
Chug‘urchiq chumchuqni cho‘qimaydi.

Olma shohida olmaxon,  
Olmaxonni olma Olimaxon.

Oltin olmay, olqish olgan  
Odam – odam.

O‘tkir-o‘tkir o‘roqda o‘t o‘rgil.  
Oqil oq olma oldi,  
Oq olmani Oqil oldi.

Xumsonlik rassom Asom,  
Isomning rasmini soldi.

Tolib tog‘aning tog‘olchali tog‘orachasi tog‘da turibdi.

Erkin ertagi ekin ekishni  
Ertaga ertalab eplaydi.

Niyoz piyoz archadi,  
Fayoz piyoz arttdi.  
Piyozdan Niyozning ko‘zi  
Achidimi, Fayoznimi?

Sovuqda tovuqqa tovoqda  
Bodroq sochdim.

Bedarak bedana bedada bedor bo‘ldi.

Tursunda to‘rtta to‘r qop,  
Unsinda bitta qo‘lqop bor.

Tojining tojdor xo‘rozi  
Gultojixo‘roz tagida.

Jajji jo‘ja jibljajibon bilan jo‘ra.



## SANAMALAR

Dadamu oyim,  
Bor ikkita singlim.  
Bahodir Dildor,  
Bog'chaga ketar,  
Sanab ko'r chavdon,  
Bizlar necha jon?

Hil-hil pishib  
Oq shaftoli,  
Shohda turar,  
Toq shaftoli.  
Usmon to'rtta yebdi kecha.  
Oyim menga  
Berdi beshta.  
Qani top-chi,  
Bari nechta?

Onam berdi pomidor  
Ishonmasang sanab ko'r.  
Iq-biq  
Sen chiq.  
Chumchuq uchdi, jarga tushdi.  
Iq-biq  
Sen chik.

Lola, hoy Lola,  
Angishvona,  
Do'ppi kiygan qiz  
Mahmadona.

Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak,  
Qoshi, ko'zi qiyilgan,  
Gulnoraning o'zi kerak.

Bir, ikki, olma diki,  
Safar oyi sariq chumchuq,  
Bog'da turmay tez uchib chiq.  
Bir, ikki, olma diki,  
Sariq chumchuq, uyga kirdi,  
Sen tezroq chiq.

Yig'lama qizcha, yig'lama,  
Seni hech kim olmaydi.  
«Pobedaga» solmaydi,  
Bir, ikki, uch, to'rt,  
Besh, olti, yetti, olib ketti!  
Aziz ko'chaga chiqdi,  
Aravasi buzildi.  
Unga nechta mix kerak?  
Bir, ikki, uch, to'rt,  
Besh, olti, yetti — ketti.  
G'ujum-g'ujum pomidor,  
Oyim bergan pomidor,  
Qani sanab ko'ray-chi?  
Bir, ikki, uch, to'rt,  
Besh, olti, yetti — ketti.  
Chumchuq, uchdi, jarga tushdi,  
Ishonmasang sanab ko'r,  
Bir, ikki, uch, to'rt,  
Besh, olti, yetti — ketti.  
Olma dumalab ketdi,  
Qaqqa dumalab ketdi?  
Boqqa dumalab ketdi.  
Bir, ikki, u...o'n ikki,  
O'n ikki deb kim aytdi?  
Babala kuchuk o'lsin,  
Bolasi bizga qolsin!

Bir, ikki, uch, to'rt,  
Besh, olti...o'n olti  
O'n olti deb kim aytdi?  
Oppoq, kuchukcha aytdi.

Oppa-oppa  
Halima xoppa  
Tillo-millo,  
Tilla-pilla...hoi!  
Poyezd o'tdimi,  
Halima xolam o'tdimi?  
Halima holam kelibdi,  
Murodiga yetibdi,  
Bir, ikki. Bir ikki...  
Uch, to'rt, uch to'rt...besh, olti. Besh olti...  
Yetti. Yetti.  
Yetaklab ketdi!

Bir, ikki aylana,  
Aylanaga kir yana.  
Anqov bo'lma, ey o'rtoq,  
Davring keladi yana.  
Bir bug'doy, ikki bug'doy,  
Uch bug'doy, puch bug'doy.

Yakshanba dedim, yotdim,  
Dushanba dedim, yotdim,  
Seshanba dedim, yotdim,  
Chorshanba dedim, yotdim,  
Payshanba dedim, yotdim,

Va juma dedim, yotdim,  
Hamma yasanib chiqdi,  
Men xumga kirib yotdim.

Bir, ikki, uch,  
Uchdan qolgan puch,  
Agar bilgan bo'lsang,  
Sen joyingdan kech!  
Bir don, ikki don,  
Uch don, to'rt don  
Besh don, olti don,  
Yetti don, sakkiz don,  
To'qqiz don, o'n qop  
Go'ng qop.

Bir anor, ikki anor,  
Uch anor — uchginasan.  
To'rt anor — to'rtginasan,  
Besh anor — chambarada  
Oltinchisi omborda...  
Alagay-palagay,  
Uchdi-yu, ketdi.  
Bir, ikki, uch...  
Piyolaning guli,  
Bu gulni kim chizgan?  
Lolaxonning qo'li.

Odina-badina; yagona,  
Misli Vali jahona.  
Jahon-jahon qizining  
Otini qo'ydi Fazila,  
Fazilaning otini,  
Darbozaga qoqibdi,  
Bo'ri kelib o'qibdi,

Chumchuq kelib cho'qibdi,  
Bir, ikki, uch, to'rt,  
Besh,olti, yetti,  
Yetaklab ketdi!

Birim — bilak, ikkim — elak,  
Uchim — uchak, to'rtim — to'shak,  
Beshim — beshak, oltim — oshiq,  
Yettim — yelkan, sakkizim — sarmog'im,  
To'qqizim — to'qmog'im,  
O'nim — o'ymogim,  
O'n birim — o'n bog'im!

### CHORLASHMALAR

Bache, bache, bozi,  
Kimni qora ko'zi,  
Kim o'yinga tushmasa,  
Bo'yniga tosh-tarozu.

Tokchaga bug'doy sepuvdim,  
Undimikin-o, undimikin,  
Mashrabboy uydan chiqmaydi,  
Yotdimikan-o, yotdimikan?  
Tomda tovuq yotarmi,  
Oyog'ingdan tortarmi?  
O'yin yoqmas bolalar  
Nomozshomda qotarmi?

Ashula, shula, shula,  
Qozonda pishdi shovla.  
Keling, qo'shiq aytaylik,  
Jo'r bo'lishib bir yo'la.

Bizlar o'ynayapmiz,  
Davra qurayapmiz.

Davraga kelinglar,  
Sizlar ham qo'shilinglar,  
Bu davrani qurgan  
Gulnorani ko'ringlar.

Hoy bolalar, bolalar,  
Bekinmashoq o'ynaymiz.  
Tarqalishmang har tomon,  
Qochib nima qilasiz?  
Do'st, otalar qo'ydi mani,  
Do'st, bolalar ko'rdi mani.  
O'ynamoqqa, kulmoqqa,  
Xumor-xumor qildi mani.

Sarimsoq, dimoq choq  
O'yinga kel-kel o'rtoq.  
Kun botdi, oyijon, momo yotdi,  
Yotishi bilan uyg'onmay qotdi.

Kun botdi-yu, kun botdi,  
Rahima xola yotdi,  
Yotdi-yu - qotdi.

### QIQILLAMALAR

Kachchi-kachi dona,  
Dumala dugona.

To'rga o'ting to'ralar,  
Palovni yeng jo'ralar.

Echki keladi ma'rab,  
O'z egasiga qarab.

Atta-matta,  
Sanmi katta.

## AYTISHUVLAR

- «Ashula, shula-shula»,  
— Ashula shula-shula,  
— Chinni tovoqda shovla,  
— Shovlani kimga berding?  
— Katta xolamga berdim.  
— Xolang nima tug'ibdi?  
— Egizaklar tug'ibdi  
— Otini nima qo'yibdi?  
— Tohir, Zuhra qo'yibdi.

## CHEKLASHMACHOQLAR

- Ona, ona, kim ona?  
— Men ona (biz ona).  
— Sizga osmondagi oy kerakmi?  
Kishnab turgan toy kerakmi?  
Kishnab turgan toy menman.  
O't, bizdan ekansan!  
Biz ikki gulu-lola,  
Kimga gul, kimga lola?  
— Mati, mati, kimning navbati?  
— Meniki (onaboshlardan biri).  
Tarvuzni olasanmi? Yo qovunni?  
Ona bola, ona boshi,  
— Yigitlarning qalam qoshi.  
— Kimni olasan?  
— Tovuqnimi, xo'roznimi?  
Kimga olma, kimga nok?  
Kimga ot, kimga arava?  
Kimga oftob, kimga yulduz?  
Daraxtmi, gul? Olchami, gilos?

## YARASHTIRGICHLAR

Karimaga berdim toychoq,  
U olavermadi har choq.  
Toychog'im kim olsa,  
Men u bilan chin o'rtoq.

Yalinchiq-yalinmachoq,  
Pista po'choq.  
Qilichmi, to'qmoq, qirq yilgacha o'rtoq,  
To'qmoq - to'qson yilgacha o'rtoq.

## AYTISHMA O'YINLAR

— Biz boyagi hovlida,  
Bo'lib tarafma-taraf.  
Navbat bilan aytishdik,  
Taraf-tarafga qarab.  
Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
Bizga kerak bog'chadan,  
Eng odobli qiz Durdona.  
Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizga Durdona kerak!  
— Oq, terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
— Sayrab turgan dil kerak!  
— Dillarning qaysi biri  
— Gulchehraxon o'tkiri.  
Sohibjamol uydan chiqsa,  
Hammani qaratadi.  
Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?



— Jilmayibgina turgan  
Qorako‘z Zumrad kerak!  
O‘ynab-o‘ynab kuylaymiz,  
— Kuylab-kuylab o‘ynaymiz.  
Oq terakmi, ko‘k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
Erkin qo‘zichoq kerak!  
Ola-bula kapalak,  
Orqa sochi jamalak.  
Oq terakmi, ko‘k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
Bizga kulib turgan  
Barno qiz kerak.

#### **XOLAM KELDI**

— Oyi, oyi, holam keldi.  
— Mana-mana.  
— Esonmisiz, omonmisiz?  
Qopga tiqqan somonmisiz?  
Orqa boshingiz olovday  
Damlab qo‘ygan palovday.

#### **«OQ SHOLI, KO‘K SHOLI».**

— Oq sholi, ko‘k sholi,  
— Oq sholini oqlaylik!  
Ko‘k sholini ko‘klaylik!  
Guruchidan Oyxonning  
To‘y kunida saqlaylik!  
— Xo‘p-p  
— Xo‘p-p

## MASHINA

Avazxonning uyiga,  
Uning sunnat to'yiga,  
Biz keltirdik mashina,  
Balandligi mana bunaqa,  
Torligi mana bunaqa,  
Kattaligi kunday,  
Qani, o'ynagin-chi bunday,  
O'ynab ber, o'ynab ber.  
Xohlaganingni tanlab ber.

## LOLAGUL

Bolalar davrasi. Biri o'rtada. Boshqasi sovg'a uzayotganday  
qo'lini davra o'rtasidagi bolaga cho'zganicha:

Shahzodaning uyiga,  
Shu tug'ilgan kuniga  
Biz keltirdik «lolagul»,  
Lolagul, lolagul.  
— Balandligi uch metr!  
— Eni mana bunday!  
— Bo'yi mana bunday!  
— Go'zalligi kunday!  
— Qani, o'ynang-chi bunday.  
— He- o'yna, o'yna, o'yna-e,  
— Gulni chakkanga taq-ey.

## MUNDARIJA

Nutqni o'zlashtirishda barmoqlar mashqlaridan foydalanish .....	4
Quyuncha .....	4
Shilliq qurt .....	5
Bayroqcha .....	5
Kapalak .....	5
Uycha .....	5
Pufak .....	6
Barmoqlar salomlashadilar .....	6
Assalom .....	6
Qo'ng'iz .....	7
Mushukning tirnoqlari .....	7
Jimjiloq .....	7
Kaft va musht .....	8
Quyosh .....	8
Daraxtlar .....	8
Gul .....	8
Asalari .....	9
Vertolyot .....	9
Odamcha .....	9
Yong'ir .....	9
Shoxdor echki .....	10
Qushlar .....	10
Quvnoq cholg'uvchilar .....	10
Olma .....	11
O'rdakchalar .....	11
Barmoqlar turishdi .....	11
Arg'imchoq .....	12
To'polonchi .....	12

Quyonglar .....	13
G'oz .....	13
Uzuk .....	13
Logopedik o'yinlar .....	14
Nafas, ovoz, eshituv diqqati va nutqni eshitishni rivojlantirishga qaratilgan tayyorlov o'yinlari .....	15
«Kimning qushchasi uzoqqa uchadi?» o'yini .....	16
Ovozni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar .....	16
Ovoz kuchini rivojlantirish .....	16
«Kim qanday qichqiradi?» o'yini .....	16
Ovoz kuchini o'zgartirish .....	18
«Shamol esyapti» o'yini .....	18
Osoyishta (past) ovozdan foydalanish malakasini tarbiyalash .....	18
«Mushuk va sichqon» o'yini .....	18
Past va baland ovozdan foydalanish malakasini tarbiyalash .....	19
«Aks-sado» o'yini .....	19
Diqqatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar .....	19
2. «Qayerda chalindi?» .....	20
«Quyosh va yomg'ir» o'yini .....	20
Nutq eshitishni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar .....	21
«Kim diqqatli?» o'yini .....	21
«Lolaxonni uyg'otma» o'yini .....	21
Nutq apparatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar .....	22
«Shirin murabbo» o'yini .....	22
«Tishlarimizni tozalaymiz» .....	22
«Ot» o'yini .....	23
«Chumchuqlarni boqish» o'yini .....	23
«Lablar dumaloq, xuddi teshik kulchaga o'xshash» o'yini .....	23
«Kim yaxshi kuladi?» o'yini .....	24
«Kim nay chala oladi?» o'yini .....	24
«O'rmonda» o'yini .....	25
«Quvnoq tilcha» o'yini .....	25
«Qo'g'irchoq uxlamoqchi» o'yini .....	26
Fonematik idrokni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar .....	26
«Qizil-oq» o'yini .....	26
«Tovush qayerda?» o'yini .....	26

«Kim ko'proq topadi?» o'yini .....	27
«Baliq ovi» o'yini .....	27
«S» tovushini to'g'ri talaffuz etishga qaratilgan o'yinlar .....	28
«Nasos» mashqi o'yini .....	28
«Jimlik» o'yini .....	28
«O'rmon shovullaydi» o'yini .....	29
«Sayrda» o'yini .....	29
«Qoqigul » o'yini .....	30
«Do'kon» o'yini .....	31
«Sh» tovushni «S» tovushidan .....	31
farqlashga oid o'yin .....	31
«Diqqatli bo'l, xatosiz takrorla» o'yini .....	31
«R» tovushini to'g'ri talaffuz etishga qaratilgan o'yinlar .....	32
«Otlar» o'yini .....	32
«Qarg'alar» o'yini .....	33
«Mototsikl» o'yini .....	33
«Rubob chalamiz» o'yini .....	34
«Rasmlarni tanla» o'yini .....	34
«Z» tovushini to'g'ri talaffuz etishga qaratilgan o'yinlar .....	35
«Chivinlar» o'yini .....	35
«Arrakashlar» o'yini .....	35
«Rasmning nomini ayt» o'yini .....	36
«Ch» tovushini nutqqa qo'yishga oid o'yin .....	36
«Poyezd» o'yini .....	36
«J» tovushini to'g'ri talaffuz etishga qaratilgan o'yin .....	37
«Asalarilar» o'yini .....	37
Til orqa «K» , «G» tovushlarini hosil qilishga oid o'yinlar .....	37
«Kak-ku» o'yini .....	37
«Kaptarlarga don ber» o'yini .....	38
«Kim mehmonga keldi?» o'yini .....	38
Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan o'yinlar .....	38
Didaktik o'yinlar .....	39
«Ovozidan bilib ol» o'yini .....	39
(6-7 yoshli bolalar uchun) .....	39
«Shahar bo'ylab sayohat» o'yini .....	40
«Koptok bilan bajariladigan harakatli o'yinlar» .....	40

«O'yinchoqlar uchun atele» o'yini .....	41
Taxminiy dialoglar: .....	42
Sukut saqlashga qaratilgan o'yinlar .....	42
«Ovozni eshитish va ko'rsatish» o'yini .....	43
«Shifoxonada» o'yini .....	43
Shivirlab gapirishga qaratilgan o'yinlar .....	43
«Dengiz to'lqinlanayapti» o'yini .....	44
«Topishmoqli xaltacha» o'yini .....	44
«Ashula aytish bilan olib boriladigan» o'yinlar .....	44
Tovushlardagi kamchiliklarni bartaraf etishda qo'llaniladigan tez aytish, sanama, chorlashma, qiqillama, aytishuv, cheklashmashoch, aytishma o'yin, yarashtirgich, topishmoq va she'rlardan foydalanish .....	45
Tez aytishlar .....	46
Sanamalar .....	49
Chorlashmalar .....	53
Qiqilamalar .....	54
Aytishuvlar .....	55
Cheklashmashochlar .....	55
Yarashtirgichlar .....	56
Aytishma o'yinlar .....	56
Xolam keldi .....	57
Oq sholi, ko'k sholi .....	57
Mashina .....	58
Lolagul .....	58

**BARMOQLAR MASHQI  
VA LOGOPEDIK O'YINLAR**

***Metodik qo'llanma***

**Muharrir  
Z. HASANOVA**

**Musahhih  
D. ESHONXO'JAYEVA**

**Badiiy muharrir  
B. BOZOROV**

**Tex.muharrir  
V.DEMCHENKO**

**Kompyuterda sahifalovchi  
A. MATOCHENKO**

***Original maket "El-Press" MChJda tayyorlandi***

Bosishga 5.04.2007-y.da ruxsat etildi.  
Garnitura Lex Times Cyr+Uzb. Bichimi 60x84 1\16.  
Bosma tobog'i 4,0. Shartli bosma tobog'i 3,72.  
Adadi 1000 nusxa (I b. - 500). Buyurtma № 78.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.  
«Yoshlar matbuoti»da bosildi.  
700113. Toshkent, Chilonzo]r-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:  
Nashr bo'limi 278-36-89, marketing bo'limi 128-78-43  
Faks 173-00-14, e-mail: yangiasravlodi@mail.ru